E-ISSN 2181-1466
9 772181 146004

ISSN 2181-6875
9 772181 687004

@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

9(2)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



9(2)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2026, № 9, sentabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo‘yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo‘yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo‘yicha, **tarix** fanlari bo‘yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan. Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Samiyev Kamoliddin A’zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Bezdudnaya A. G., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Razumovskiy V. M., Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Zahidov A. A., Texas universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Kovalev I. V., Sibir Federal universiteti professori, texnika fanlari doktori
Ibrayeva K. T., Tyumen davlat universiteti, Ekologiya va qishloq xo‘jaligi biologiyasi instituti, texnika fanlari nomzodi
Tursunjon M., Shinjon Uyg‘ur Avtonom Rayoni Qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi, Paxta ilmiy-tadqiqot instituti professori, qishloq xo‘jalik fanlari doktori
Ai Syan Tao, Shinjon Universiteti Aqlli qishloq xo‘jaligi instituti direktori, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor
Tursunov D.A., O‘sh davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Zagdkhorol Bayasgalan, Mongolian University of Science and Technology professori, fizika-matematika fanlari doktori
Gumerov Renat, Qozon federal universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori
Babayeva F. Sh., Ozarbayjon milliy fanlar akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori
Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo‘minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor
Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor
Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor
Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor
Yuldosheva Dilorom Nigmatovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sharipov M. Z., fizika-matematika fanlari doktori, professor
Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor
Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor
Ochilov Alisher To'lis o'g'li, tarix fanlari doktori, professor
Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent
G'aybullayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'rinova Bozorgul Zokirovna, tarix fanlari doktori, dotsent

SERIYA: A N I Q V A T A B I I Y F A N L A R

MUNDARIJA *** CONTENTS *** СОДЕРЖАНИЕ		
FIZIKA * PHYSICS *** ФИЗИКА**		
Azimova N.Y.	Yarimo‘tkazgich materiallarning elektr va optik xossalariga harorat ta’sirini o‘rganish	4
Daminov R.Sh., Ochilov O., Malikov K.Kh., Yoldoshev O.Y., Qambarova M.S., Ne’matova Z.Z.	Extended analysis of the UV–Vis absorption spectrum of graphene oxide. Urbach energy, Tauc model ambiguity and sp^2 domain size	10
Esanov N.Q.	Qovushqoq-elastik qobiqlarning parametrik tebranishlari va turg‘unligi	16
Икрамов Р.Ғ., Мўминов Х.А., Умаров С.С.	Кубо-Гринвуд формуласи асосида аморф яримўтказгичларнинг экспоненциал оптик ютилиш коэффициенти спектрларини таҳлил қилиш	22
Ibadullayev N.A.	Magnit maydon ta’sirida misning lazerli ablatsiyasi: plazma-sirt issiqlik almashinuvi va ablatsiya chuqurligi	28
Sharipov M.Z., Ibrohimova S.Sh.	CoSi va $CoSi_2$ yupqa plyonkalarining optik yutilish spektrlari	35
Matnazarova Sh.Q., Isakjanova M.B., Xalilov U.B., Yusupov M.S.	Uglerodli nanostrukturalarning tabiiy (normal) va saraton (oksidlangan) hujayra membranalari modellari bilan o‘zaro ta’sir mexanizmlarini tadqiq qilish	40
Ruziev E.T.	Modeling and optimization of the angular distribution measurement for the $^{10}B(n,d)^{9}Be$ reaction at the NG-150 neutron generator	49
Sadullayev J.O., Sotimova M.K.	3D o‘lchamli grafen nanostrukturalar sinteziga lazer va material parametrlarining ta’siri	58
Shamuratov Sh.B., O‘rinov B.G‘.	Nanosekundli impulsli lazer ablatsiyasi yordamida metall sirtlarini qoraytirish	62
Soliyeva N.M.	Nanosuyuqliklardan tovush to‘lqinlari o‘tganda energiyaning so‘nish mexanizmlari va ularning nazariy tahlili	70
Axmedjanov F.R., Tugalov F.B.	Gamma nuri bilan nurlangan litiy ftorid kristallarida akustik to‘lqinlarning so‘nish mexanizmi	75

Usanov R.M.	$Co/SiO_2/n-Si\langle P,Zn\rangle$ moy strukturalarini tayyorlashda kimyoviy tozalash va magnetron changlatish texnologiyasi	80
Yuldashev O.Y., **Ochilov O.,** **Malikov K.Kh.,** **Daminov R.Sh.,** **Qarshiyev Z.A.,** **Toshboyev N.U.**	Skyrmion dynamics in magneto-optical tracks of ultra-thin Si(111)/CoFeB/MgO/CoFeB junctions	87
Sharafova T.S.	NI/SIO_2/n-SI<P> metall-oksid-yarimo‘tkazgich strukturalarini shakllantirish texnologiyasi va uning eksperimental-fizik asoslari	94
Djurayev D.R., **Ahadov A.A.,** **Abdujabborov L.A.**	O‘ta o‘tkazuvchanlikdagi izotop effektini tavsiflovchi turli nazariyalar	99
Sharopov U.B., **Kuryozov F.O.**	Magnetron changitish usulida olingan MoO_3 yupqa pardalarining atom tarkibi va zaryad holatlarini rentgen fotoelektron spektroskopiyasi yordamida tadqiq etish	106
Abrayeva S.T.	Katta dozali ion implantatsiyasi ta’sirida Si(111) sirt va hajm plazma tebranishlarining nazariy tahlili	112
Axmedov N.B.	Qovushqoq–elastik muhitdagi to‘ldiruvchili sferik qobiqda garmonik va nostatsionar to‘lqinlar difraksiyasi	117
Djurayev D.R., **Temirov O.F.,** **Ahadov A.A.**	NbN namunalaridagi o‘ta o‘tkazuvchanlik uchun nazariy modellar	123
Kabulov R.R., **Xojabayev B.K.**	Nikel oksidi (NiO) yupqa qatlamlarini vakuumda termal yotqizish usulida sintez qilish	128
Xalilov U.B., **Mirzayev S.Z.,** **Xusanova D.X.,** **Jo‘raboyev T.E.,** **Azamjonov A.A.**	π-STEKING holatidagi perilen trimerlarining elektron strukturasi	133
Muzafarov A.M., **Eshburiyev R.M.,** **Allaberganova G.M.,** **Fayzullayeva M.L.**	Gamma-spektrometrik usul yordamida Zarafshon daryosi suv havzasi tuproqlari tarkibidagi tabiiy radionuklidlar miqdorlarini aniqlash	139

Sabirova R.A., Sulaymonova G.X., Fayzullayev F.B., Salimova D.B., Isayev N.F.	Suyuqlik bilan aloqada bo‘lgan egri chiziqli quvurning majburiy tebranishlari	146
Маматкаримов О.О., Кучкоров Б.Х., Абдулхаев А.А., Носирдинов И.К.	Формирование полярной асимметрии на поверхности N^+-Si:Sb(100) после химической обработки HF и её проявление в вольт-амперной характеристике	152
Maxmanov U.K., Musurmonov Q.N., Aslanov B.A., Nematov V.F.	“Spray coating” usuli yordamida C_{60} fullereni yupqa qatlamini hosil qilish va uning optik xossalari tadqiqi	159
Turayev A.A., Ergashov A.Q., Sharipbayev S.S., Tursunov R.I.	TiO_2 asosidagi fotoanodli quyosh batareyalari morfologiyasini zamonaviy komyuter texnologiyalari yordamida o‘rganish	164
Тураев А.А., Шарипбаев С.С., Эргашов А.К., Турсунов Р.И.	Современные достижения в области морфологии наноструктур TiO_2 для эффективных DSSC	172
Safarov O.J.	Statistical test of regular black-hole geometry using HFQPO observations	178
Абдурахимов Ж.Т., Бекпулатов И.Р., Игамов Б.Дж.	Изучение морфологии, фазовой эволюции и оптических свойств тонких плёнок ZrO_2 с помощью раман-спектроскопии	185
KIMYO * CHEMISTRY *** ХИМИЯ**		
Khudoyberdiyev Sh.Sh., Abdukhakimova A.O.	Synthesis, structure and properties of N-Carboxymethyl chitosan	192
INFORMATIKA * INFORMATICS *** ИНФОРМАТИКА**		
Hayitov U.H., Egamberdiyeva Sh.U.	Moodle LMS platformasida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar akademik monitoringi va moslashuvchan tavsiya tizimini ishlab chiqish	196
Xamroyev U.N.	Markov zanjirli Monte-Karlo usullari konvergensiyasining algoritmik tahlili va ma’lumotlar tuzilmalari bilan bog‘liqligi	201

UO‘K 621.315.592

YARIMO‘TKAZGICH MATERIALLARNING ELEKTR VA OPTIK XOSSALARIGA HARORAT TA’SIRINI O‘RGANISH

Azimova Nazokat Yoqubjon qizi,
Namangan davlat texnika universiteti
2-son akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi
nazokatazimova07@gmail.com

Annotatsiya. *Yarimo‘tkazgich materiallarning elektr va optik xossalari haroratga kuchli bog‘liq. Harorat o‘zgarishi kristall panjara tebranishlari, energetik zonalar, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va harakatchanligiga ta’sir qiladi. Ushbu maqolada kremniy (Si), germaniy (Ge) va galliy arsenid (GaAs) misolida haroratning yarimo‘tkazgich xossalariga ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilindi. Varshni tenglamasi asosidagi hisoblashlar 77–400 K oralig‘ida harorat oshishi bilan taqiqlangan energetik soha kengligi kamayishini va optik yutilish chegarasi uzunroq to‘lqinlar tomon siljishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, harorat oshganda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi ortadi, biroq fononlar bilan sochilish tufayli ularning harakatchanligi pasayadi. Natijalar yarimo‘tkazgichli datchiklar, fotodetektorlar, quyosh elementlari va optoelektron qurilmalarni loyihalashda harorat omilini hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: yarimo‘tkazgich, kremniy, germaniy, galliy arsenid, harorat, elektr o‘tkazuvchanlik, optik yutilish, fotoo‘tkazuvchanlik, Varshni tenglamasi.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ТЕМПЕРАТУРЫ НА ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ И ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация. *Электрические и оптические свойства полупроводниковых материалов в значительной степени зависят от температуры. Изменение температуры влияет на колебания кристаллической решётки, энергетическую зонную структуру, концентрацию и подвижность носителей заряда. В данной статье теоретически проанализировано влияние температуры на свойства полупроводников на примере кремния (Si), германия (Ge) и арсенида галлия (GaAs). Расчёты, выполненные на основе уравнения Варшни, показали, что при повышении температуры в диапазоне 77–400 K ширина запрещённой зоны уменьшается, а край оптического поглощения смещается в область более длинных волн. Одновременно с повышением температуры концентрация носителей заряда увеличивается, однако их подвижность снижается вследствие усиления рассеяния на фононах. Полученные результаты подтверждают необходимость учёта температурного фактора при проектировании полупроводниковых датчиков, фотодетекторов, солнечных элементов и оптоэлектронных устройств.*

Ключевые слова*: полупроводник, кремний, германий, арсенид галлия, температура, электропроводность, оптическое поглощение, фотопроводимость, уравнение Варшни.*

STUDY OF THE EFFECT OF TEMPERATURE ON THE ELECTRICAL AND OPTICAL PROPERTIES OF SEMICONDUCTOR MATERIALS

Abstract. *The electrical and optical properties of semiconductor materials are strongly dependent on temperature. Variations in temperature affect crystal lattice vibrations, energy band structure, charge carrier concentration, and carrier mobility. This article theoretically analyzes the effect of temperature on semiconductor properties using silicon (Si), germanium (Ge), and gallium arsenide (GaAs) as representative materials. Calculations based on the Varshni equation showed that, within the temperature range of 77–400 K, an increase in temperature leads to a decrease in the band gap energy and shifts the optical absorption edge toward longer wavelengths. At the same time, the concentration of charge carriers increases with temperature, whereas their mobility decreases due to enhanced phonon scattering. The obtained results demonstrate the importance of considering temperature effects in the design of semiconductor sensors, photodetectors, solar cells, and optoelectronic devices.*

Keywords*: semiconductor, silicon, germanium, gallium arsenide, temperature, electrical conductivity, optical absorption, photoconductivity, Varshni equation.*

Kirish. Zamonaviy elektronika, mikroelektronika va optoelektronikaning rivojlanishini yarimo‘tkazgich materiallarsiz tasavvur qilish qiyin. Kremniy asosidagi integral mikrosxemalar, quyosh elementlari, turli sensorlar, galliy arsenid asosidagi yorug‘lik chiqaruvchi va yuqori chastotali qurilmalar, germaniy va uning birikmalari asosidagi infraqizil fotodetektorlar bugungi texnologik tizimlarning muhim qismini tashkil etadi. Bu qurilmalarning ishonchli ishlashi esa ular tayyorlangan materialning fizik parametrlarini aniq bilishni talab qiladi.

Yarimo‘tkazgichlarning metallardan asosiy farqlaridan biri ularning elektr xossalari tashqi sharoitga juda sezgir ekanidir. Harorat, yorug‘lik, elektr va magnit maydon, bosim hamda ionlashtiruvchi nurlanish ta’sirida yarimo‘tkazgichning elektr o‘tkazuvchanligi bir necha tartibga o‘zgarishi mumkin. O‘zbek olimlari M.K. Baxodirxonov, N.F. Zikrillayev va X.M. Iliyev tomonidan yaratilgan “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” darsligida ham yarimo‘tkazgich materiallarining elektrofizik parametrlari tashqi ta’sirlar, xususan, harorat o‘zgarishi natijasida keskin o‘zgarishi qayd etilgan. Aynan shu xususiyat yarimo‘tkazgichlardan termodatchik va boshqa sezgir qurilmalar yaratishda foydalanish imkonini beradi.

Haroratning ta’siri birgina elektr o‘tkazuvchanlik bilan cheklanmaydi. Kristall harorati oshganda panjara atomlarining tebranish amplitudasi ortadi. Bu jarayon elektronlarning kristall panjara bilan o‘zaro ta’sirini kuchaytiradi va energetik zonalarning holatini o‘zgartiradi. Odatda harorat ortishi bilan ko‘pchilik klassik yarimo‘tkazgichlarda taqiqlangan energetik soha kengligi (E_g) kamayadi. Ushbu hodisa optik yutilish chegarasi, fotolyuminessensiya maksimumi, fotosezgirlik va yarimo‘tkazgichli lazerlarning nurlanish to‘lqin uzunligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Varshni tomonidan 1967-yilda taklif qilingan yarim empirik tenglama Si, Ge, GaAs, InP, InAs va boshqa qator yarimo‘tkazgichlarda taqiqlangan soha kengligining haroratga bog‘lanishini ifodalashda keng qo‘llanadi.

Yarimo‘tkazgichlarda elektr o‘tkazuvchanlikning haroratga bog‘liqligi yanada murakkabdir. Elektr o‘tkazuvchanlik

$$\sigma = q(n\mu_n + p\mu_p)$$

munosabat bilan ifodalanadi. Bu yerda (q) — elementar zaryad, (n) va (p) — elektron hamda kovaklar konsentratsiyasi, (\mu_n) va (\mu_p) esa ularning harakatchanligi. Demak, haroratning elektr o‘tkazuvchanlikka ta’sirini baholashda zaryad tashuvchilar soni bilan bir qatorda ularning kristalldagi harakat sharoitini ham hisobga olish zarur.

Harorat ortishi ko‘pincha zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining ortishiga sabab bo‘ladi. Donor yoki akseptor qo‘shimchali yarimo‘tkazgichlarda past haroratlarda kirishma atomlarining hammasi ham ionlashgan bo‘lmaydi. Harorat oshgani sari ular ionlashib, erkin zaryad tashuvchilar soni ortadi. O‘zbek tilidagi zamonaviy “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” darsligida donorli yarimo‘tkazgichlarda elektron konsentratsiyasi harorat ortishi bilan dastlab eksponensial ko‘payishi, donorlar to‘liq ionlashgandan so‘ng ma’lum harorat oralig‘ida deyarli o‘zgarmasligi va yanada yuqori haroratda xususiy o‘tkazuvchanlik ustunlik qila boshlashi ko‘rsatilgan.

Biroq zaryad tashuvchilarning harakatchanligi ham haroratga bog‘liq. Harorat ko‘tarilganda kristall panjaradagi fononlar soni va panjara tebranishlarining intensivligi ortadi. Natijada elektron va kovaklarning fononlarda sochilish ehtimoli oshib, ularning harakatchanligi kamayadi. Kremniy uchun Arora, Hauser va Roulston tomonidan ishlab chiqilgan model elektron va kovaklar harakatchanligini 250–500 K harorat oralig‘ida ham temperatura, ham legirlash konsentratsiyasiga bog‘liq holda tavsiflaydi. GaAsda esa yuqoriroq haroratlarda elektronlarning qutbiy optik fononlar bilan sochilishi muhim rol o‘ynashi aniqlangan.

Optik xossalarda ham shunga o‘xshash murakkab holat kuzatiladi. Yarimo‘tkazgichda fotonning yutilishi elektronning valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasiga o‘tishi bilan bog‘liq. O‘zbek fizik adabiyotlarida GaAs kabi materiallar to‘g‘ri zonali, Si va Ge esa bilvosita zonali yarimo‘tkazgichlar sifatida qaraladi. To‘g‘ri zonali materialda elektronning optik o‘tishi foton orqali nisbatan bevosita yuz bersa, kremniy va germaniyda impuls saqlanishi uchun fonon ishtiroki ham zarur bo‘ladi. Shu sababli materialning zona tuzilishi optik yutilish va nurlanish samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur ishning maqsadi Si, Ge va GaAs misolida yarimo‘tkazgichlarning elektr hamda optik xossalariga harorat ta’sirining fizik mexanizmlarini tahlil qilish, taqiqlangan soha kengligidagi o‘zgarishni sonli baholash va olingan natijalarning yarimo‘tkazgichli qurilmalar ishlashidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda yangi eksperimental o‘lchovlar o‘tkazilmadi. Asosiy materiallar sifatida yarimo‘tkazgichlar fizikasi bo‘yicha O‘zbekistonda chop etilgan oliy ta’lim darslik va o‘quv qo‘llanmalari, shuningdek xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etilgan klassik va zamonaviy tadqiqotlardan foydalanildi.

Milliy manbalardan M.K. Baxodirxonov, N.F. Zikrillayev va X.M. Iliyevning 2020-yilda “Tafakkur” nashriyotida chop etilgan “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” darsligi asosiy manbalardan biri sifatida olindi. Ushbu darslik texnika oliy o‘quv yurtlari talabalari, doktorantlar va pedagoglar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda yarimo‘tkazgichlarning kristall tuzilishi, energetik zonalari, zaryad tashuvchilar statistikasi, elektr o‘tkazuvchanlik, fotoelektrik hodisalar va yarimo‘tkazgichli asboblarning fizik asoslari yoritilgan.

Shuningdek, A. Teshaboyev, S. Zaynobidinov, S. Vlasov, I. Karimov va V. Abduazimovning “Yarimo‘tkazgichlar sirti fizikasi” o‘quv qo‘llanmasidan foydalanildi. Mazkur manba O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlari uchun tavsiya etilgan bo‘lib, yarimo‘tkazgich sirtidagi fizik-kimyoviy jarayonlar va tashqi omillar ta’sirini yoritadi. A. Teshaboyev, S. Zaynobidinov va E.A. Musayevning “Yarimo‘tkazgichlar va yarimo‘tkazgichli asboblar texnologiyasi” o‘quv qo‘llanmasi ham mavzuning texnologik jihatlarini tahlil qilishda asosiy milliy manbalardan biri bo‘ldi.

Taqiqlangan energetik sohaning haroratga bog‘liqligini hisoblashda Varshni tenglamasi qo‘llanildi:

$$E_g(T) = E_g(0) - \frac{\alpha T^2}{T+\beta}$$

Bu yerda (E_g(0)) — absolyut nol haroratdagi taqiqlangan zona kengligi, (T) — absolyut harorat, (\alpha) va (\beta) esa muayyan material uchun tajribadan aniqlangan koeffitsiyentlardir. Varshni ushbu ifodaning Si, Ge, GaAs va boshqa yarimo‘tkazgichlarning eksperimental natijalarini qoniqarli darajada ifodalashini ko‘rsatgan.

Hisoblashlarda kremniy uchun (E_g(0)=1.166) eV, (\alpha=4.73\times10^{-4}) eV/K va (\beta=636) K; germaniy uchun (E_g(0)=0.7437) eV, (\alpha=4.77\times10^{-4}) eV/K va (\beta=235) K; GaAs uchun esa (E_g(0)\approx1.519) eV, (\alpha\approx5.405\times10^{-4}) eV/K va (\beta=204) K qiymatlaridan foydalanildi. GaAs uchun ushbu parametrlar ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanadi.

Optik yutilish chegarasining taxminiy to‘lqin uzunligi

$$\lambda_g \approx \frac{1240}{E_g}$$

munosabat orqali hisoblandi. Bu yerda (E_g) elektronvoltlarda, (\lambda_g) esa nanometrlarda ifodalanadi. Hisoblashlar 77 K, 300 K va 400 K haroratlar uchun bajarildi. Natijalar haqiqiy namunadagi kirishmalar, nuqsonlar, deformatsiya va boshqa omillarni hisobga olmaydigan idealizatsiyalangan baholash sifatida talqin qilindi.

Natijalar. Hisoblash natijalari birinchi navbatda haroratning energetik zonalar tuzilishiga sezilarli ta’sirini ko‘rsatdi. Kremniy uchun 77 K haroratda taqiqlangan soha kengligi taxminan 1.162 eV ga teng bo‘lsa, 300 K da 1.121 eV, 400 K da esa 1.093 eV gacha kamayadi. Demak, 77 K dan 400 K gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida kremniyning taqiqlangan energetik sohasi qariyb 0.069 eV ga torayadi.

Germaniyda harorat ta’siri nisbatan kuchliroq namoyon bo‘ladi. Hisoblashga ko‘ra, uning fundamental taqiqlangan soha kengligi 77 K da 0.735 eV atrofida bo‘lsa, 300 K da 0.663 eV va 400 K da 0.624 eV gacha kamayadi. Bunday o‘zgarish germaniyning infraqizil diapazondagi optik xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

GaAs uchun ham xuddi shunday qonuniyat kuzatiladi. 77 K da hisoblangan (E_g) qiymati 1.508 eV, 300 K da 1.422 eV, 400 K da esa 1.376 eV ni tashkil etdi. Xona haroratidagi hisoblangan qiymat GaAs uchun tajribada keng qabul qilingan taxminan 1.42 eV qiymat bilan yaxshi mos keladi. Zamonaviy temperatura-bog‘liq fotolyuminessensiya tadqiqotlarida ham GaAs uchun xona haroratida taxminan 1.422 eV va past haroratda 1.52 eV ga yaqin qiymatlar kuzatilgan.

Bu natijaning fizik sababi, avvalo, harorat ortishi bilan kristall panjaraning issiqlik kengayishi va elektron–fonon o‘zaro ta’sirining kuchayishidir. Panjara atomlarining muvozanat holati atrofidagi tebranish amplitudasi ortgani sari elektron energetik holatlarining o‘rtacha energiyasi ham o‘zgaradi. Natijada valent va o‘tkazuvchanlik zonalarining chetlari o‘zaro yaqinlashib, (E_g) kamayadi. Varshni tenglamasi ushbu jarayonni empirik shaklda juda qulay ifodalasa-da, uning parametrlarini fundamental fizik doimiylar sifatida emas, muayyan harorat intervaliga moslashtirilgan parametrlar sifatida talqin qilish to‘g‘riroqdir. Elektron–fonon o‘zaro ta’siriga asoslangan tadqiqotlarda ham Varshni modelining ayrim sharoitlarda yaqinlashuv ekanligi ko‘rsatilgan.

Taqiqlangan soha torayishi optik yutilish chegarasining uzun to‘lqinlar tomon siljishiga olib keladi. Kremniy uchun 77 K da hisoblangan yutilish chegarasi taxminan 1067 nm bo‘lsa, 300 K da 1107 nm, 400 K da esa 1135 nm ga yaqinlashadi. Germaniyda mos ravishda taxminan 1688, 1869 va 1989 nm qiymatlar olinadi. GaAsda esa yutilish chegarasi 77 K da 823 nm atrofida bo‘lib, xona haroratida 872 nm va 400 K da taxminan 901 nm tomon siljiydi.

Bu hodisa optoelektronikada “qizil siljish” sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, yarimo‘tkazgichli yorug‘lik manbai yoki lazerning ishchi harorati ortganda uning nurlanish maksimumi

koʻpincha kattaroq toʻlqin uzunligi tomon siljiydi. Fotodetektorda esa sezgirlik spektrining chegarasi ham harorat bilan oʻzgaradi. Demak, yuqori aniqlik talab qilinadigan optik tizimlarda nafaqat elektr parametrlarni, balki spektral xarakteristikalarni ham temperaturaviy stabilizatsiya qilish zarur.

Kirishmali yarimoʻtkazgichlarda elektr xossalarining temperatura boʻyicha oʻzgarishini shartli ravishda bir necha fizik rejimlar orqali tushuntirish mumkin. Juda past haroratda donor va akseptorlarning bir qismi ionlashmagan holatda boʻladi va erkin tashuvchilar soni kam boʻladi. Harorat oshganda kirishmalar ionlasha boshlaydi va oʻtkazuvchanlik tez ortadi. Keyingi harorat oraligʻida donor yoki akseptorlar deyarli toʻliq ionlashib boʻlganligi sababli asosiy zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi nisbatan barqaror boʻladi. Shu vaqtda panjara sochilishi kuchaygani uchun harakatchanlikning kamayishi oʻtkazuvchanlik oʻzgarishida muhim rol oʻynay boshlaydi. Nihoyat, yuqori haroratda xususiy elektron–kovak juftlari generatsiyasi keskin kuchayib, xususiy oʻtkazuvchanlik ustunlashadi. Bu holat Oʻzbekiston oliy ta’limida foydalaniladigan “Yarimoʻtkazgichlar fizikasi” darsligida ham zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va Fermi sathining haroratga bogʻliqligi orqali batafsil tushuntirilgan.

Harorat optik yutilish jarayoniga faqat (E_g) ning oʻzgarishi orqali emas, balki fononlarning roli orqali ham ta’sir koʻrsatadi. Bu ayniqsa Si va Ge kabi bilvosita zonali yarimoʻtkazgichlar uchun muhim. Bunday materiallarda optik oʻtish vaqtida elektron impulsi oʻzgarishi kerakligi sababli fonon yutilishi yoki chiqarilishi jarayonda qatnashadi. Harorat oshganda fononlarning statistik taqsimoti oʻzgaradi, shuning uchun bilvosita optik oʻtishlar ehtimoli va yutilish spektrining shakli ham temperaturaga bogʻliq boʻladi.

GaAsda esa oʻtkazuvchanlik zonasining minimumi va valent zonaning maksimumi bir xil (k) qiymatiga mos kelgani sababli toʻgʻri optik oʻtishlar ustun. Oʻzbek darsligida GaAs toʻgʻri zonali, Si va Ge esa bilvosita zonali materiallar sifatida koʻrsatilgan. Shu sababli GaAs yorugʻlik chiqaruvchi diod va yarimoʻtkazgichli lazerlar uchun Si ga qaraganda ancha qulay materialdir. Biroq harorat oshishi bilan GaAsda ham nurlanish energiyasining pasayishi, spektrning kengayishi va ayrim hollarda fotolyuminessensiya intensivligining kamayishi kuzatiladi. Soʻnggi temperatura-bogʻliq GaAs tadqiqotlarida yuqori haroratda nurlanish intensivligining termik soʻnishi nurlanmaydigan rekombinatsiya markazlari faollashishi bilan bogʻlangan.

Fotooʻtkazuvchanlik ham haroratga kuchli bogʻliq. Bunda bir tomondan fotonlar yaratadigan qoʻshimcha elektron–kovak juftlari, ikkinchi tomondan ularning yashash vaqti va rekombinatsiya tezligi muhim. Harorat ayrim tuzoq va rekombinatsiya markazlarini faollashtirishi mumkin. Natijada fototokning qiymati harorat bilan monoton ravishda oshishi shart emas. Oʻzbek olimlari kompensatsiyalangan kremniyda fotooʻtkazuvchanlikning harorat ta’sirida soʻnish hodisasidan past haroratli termodatchiklar yaratishda foydalanish mumkinligini ham koʻrsatganlar.

Umuman, hisoblash va adabiyot tahlili shuni koʻrsatadiki, harorat yarimoʻtkazgichning elektr va optik xossalarini bitta parametr orqali emas, oʻzaro bogʻlangan bir qancha fizik mexanizmlar orqali oʻzgartiradi. Taqiqlangan soha kengligi, tashuvchilar konsentratsiyasi, harakatchanlik, rekombinatsiya tezligi va fononlar sonining bir vaqtda oʻzgarishi real qurilmaning yakuniy temperaturaviy xarakteristikasini belgilaydi.

Muhokama. Olingan natijalarni amaliy nuqtayi nazardan baholaganda harorat ta’sirini yarimoʻtkazgich qurilmalari uchun ham foydali, ham salbiy omil sifatida koʻrish mumkin. Haroratga yuqori sezgirlik termistor, termodatchik, bolometr va ayrim infraqizil detektorlarning ishlash prinsipining oʻzini tashkil etadi. Shu bilan birga, mikroprotsessor, kuch elektronikasidagi diod yoki tranzistor, quyosh elementi va lazerda ortiqcha qizish qurilma parametrlarining belgilangan qiymatdan chetga chiqishiga olib keladi.

Kremniy asosidagi elektron qurilmalarda ishchi harorat oshganda xususiy tashuvchilar konsentratsiyasining ortishi teskari toklarning kuchayishiga sabab boʻlishi mumkin. p–n oʻtishli qurilmalarda bu jarayon ayniqsa muhim, chunki teskari toʻyinish toki temperaturaga juda sezgir. Shu bilan bir vaqtda tashuvchilar harakatchanligining kamayishi tranzistor kanali yoki hajmiy yarimoʻtkazgich qarshiligiga ta’sir qiladi. Yuqori quvvatli qurilmada elektr energiyasining bir qismi issiqlikka aylanishi, harorat oshishi va natijada elektr parametrlarning yana oʻzgarishi issiqlik bilan bogʻliq qayta aloqa mexanizmini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli zamonaviy yarimoʻtkazgichli tizimlarda issiqlikni olib chiqish muammosi material tanlash kabi muhim muhandislik vazifasidir.

Haroratning optik xossalarga ta’siri quyosh energetikasida ham muhim. Quyosh elementi qiziganida yarimoʻtkazgichning taqiqlangan sohasi kamayadi. Bu ma’lum darajada uzunroq toʻlqinli fotonlarni yutish imkonini kengaytirishi mumkin, biroq ochiq zanjir kuchlanishining pasayishi va rekombinatsiya jarayonlarining kuchayishi umumiy samaradorlikka salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkin. Demak, quyosh batareyasining faqat yorugʻlik yutishi emas, uning ishchi temperaturasi va issiqlik almashinuvi ham hisobga olinishi zarur.

GaAs va boshqa III–V birikmalarda nurlanish toʻlqin uzunligining temperaturaga bogʻliqligi optik aloqa va lazer texnologiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, lazer diodi muayyan toʻlqin uzunligida

ishlashi kerak bo‘lgan optik tizimda kristall haroratining bir necha o‘n kelvinga o‘zgarishi nurlanish maksimumining siljishiga sabab bo‘lishi mumkin. Vurgaftman, Meyer va Ram-Mohan tomonidan III–V yarimo‘tkazgichlar parametrlarining keng qamrovli tahlilida ham zona parametrlarining haroratga bog‘lanishi optoelektronik tuzilmalarni hisoblash uchun muhim kattalik sifatida qaralgan.

Natijalardan yana bir muhim xulosa kelib chiqadi: yarimo‘tkazgichning temperaturaviy xossasini faqat uning kimyoviy nomi bilan aniqlash yetarli emas. Bir xil kremniy materiali turli legirlash darajasida, turli nuqson konsentratsiyasida yoki turli kristall sifati sharoitida haroratga turlicha javob beradi. Past haroratda ionlashgan kirishmalar va nuqsonlarda sochilish ustun bo‘lishi mumkin, yuqori haroratda esa fononlar bilan sochilish asosiy mexanizmga aylanadi. GaAsda bir turdagi fonon, Si da boshqa fonon tarmoqlari transport jarayoniga katta hissa qo‘shishi mumkin. Birinchi prinsiplar asosidagi hisoblashlarda ham Si va GaAs uchun fonon-chegaralangan elektron va kovaklar harakatchanligining fizik mexanizmlari bir xil emasligi ko‘rsatilgan.

Optik o‘lchovlarda ham materialning to‘g‘ri yoki bilvosita zonali ekanini hisobga olish zarur. GaAsning yutilish chegarasini fotolyuminessensiya yoki yutilish spektri orqali kuzatish nisbatan sodda bo‘lsa, Si va Ge da fonon yordamidagi jarayonlar sababli spektrni talqin qilish murakkabroq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, yuqori haroratda spektral chiziqlarning kengayishi band chetini aniq aniqlashga ta’sir qiladi. Germaniyning dielektrik funksiyasini 100–850 K oralig‘ida ellipsometrik o‘rgangan tadqiqotlarda ham kritik energiyalar temperaturaga bog‘liq ravishda siljishi va spektral kengayish parametrlarining o‘zgarishi kuzatilgan.

Mazkur ishda foydalanilgan Varshni modeli sodda va amaliy jihatdan qulay. Lekin uni universallashtirib yuborish maqsadga muvofiq emas. Juda past haroratlarda yoki Debye temperaturasi yuqori bo‘lgan materiallarda elektron–fonon o‘zaro ta’sirini fizik jihatdan aniqroq ifodalovchi Bose–Einstein tipidagi modellar yaxshiroq natija berishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda Varshni tenglamasi ma’lum diapazonda yaxshi yaqinlashuv berishi, biroq uning (\alpha) va (\beta) parametrlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri fundamental fizik ma’noga ega deb qabul qilish ehtiyotkorlikni talab qilishi ko‘rsatilgan.

Shunga qaramay, Si, Ge va GaAs uchun bajarilgan hisob-kitoblar asosiy fizik tendensiyani aniq ko‘rsatadi. Harorat oshishi bilan energetik soha torayadi, optik yutilish chegarasi uzun to‘lqin tomon siljiydi, xususiy tashuvchilar konsentratsiyasi ortadi va fononlar bilan sochilish kuchayadi. Qurilmaning yakuniy elektr yoki optik xususiyati aynan shu jarayonlarning o‘zaro nisbatiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida bu masalaning amaliy ahamiyati yanada yuqori. Elektron va fotoelektrik qurilmalar yoz faslida yuqori atrof-muhit haroratida ishlashi mumkin, quyosh elementlarining sirt harorati esa havo haroratidan ham yuqoriga ko‘tariladi. Shu sababli mahalliy iqlim sharoitida ishlatiladigan yarimo‘tkazgich qurilmalarini yaratish yoki tanlashda pasportdagi xona haroratiga tegishli parametrlarning o‘zi bilan cheklanmasdan, ularning keng temperatura oralig‘idagi xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Xulosa. Yarimo‘tkazgich materiallarning elektr va optik xossalariga haroratning ta’siri ularning fundamental fizik tabiatidan kelib chiqadi. Haroratning oshishi kristall panjara tebranishlarini kuchaytirib, elektron–fonon o‘zaro ta’siri va issiqlik kengayishi orqali energetik zonalar tuzilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Si, Ge va GaAs uchun Varshni tenglamasi asosida bajarilgan hisoblashlar harorat 77 K dan 400 K gacha oshirilganda taqiqlangan soha kengligining barcha materiallarda kamayishini ko‘rsatdi.

Kremniyda (E_g) taxminan 1.162 eV dan 1.093 eV gacha, germaniyda 0.735 eV dan 0.624 eV gacha, GaAsda esa 1.508 eV dan 1.376 eV gacha kamayishi aniqlandi. Natijada optik yutilish chegarasi uzunroq to‘lqinlar tomon siljiydi. Bu hodisa fotodetektorlar, LED, yarimo‘tkazgichli lazerlar va boshqa optoelektron qurilmalar uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Elektr xossalari bo‘yicha esa haroratning ta’siri ikki asosiy jarayonning raqobati bilan belgilanadi. Harorat oshishi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasini, ayniqsa, xususiy o‘tkazuvchanlik sohasida, keskin oshiradi. Biroq panjara fononlarida sochilishning kuchayishi elektron va kovaklarning harakatchanligini pasaytiradi. Shu sababli elektr o‘tkazuvchanlikning temperaturaviy bog‘lanishi material turi, legirlash darajasi va harorat intervaliga qarab turlicha bo‘lishi mumkin.

Tahlillar yarimo‘tkazgich qurilmalarni loyihalashda haroratni ikkinchi darajali tashqi omil sifatida emas, balki materialning asosiy fizik parametrlarini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qarash lozimligini ko‘rsatadi. Yarimo‘tkazgichlarning aynan shu yuqori temperaturaviy sezgirligi bir tomondan elektron qurilmalarda termik barqarorlik muammosini tug‘dirsa, ikkinchi tomondan yuqori sezgir termodatchik, fotodetektor va boshqa funksional qurilmalarni yaratish uchun fizik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Baxodirxonov, M.K., Zikrillayev, N.F., Iliyev, X.M. Yarimo'tkazgichlar fizikasi. Toshkent: Tafakkur, 2020. 480 b. ISBN 978-9943-24-215-9.

2. Teshaboyev, A., Zaynobidinov, S., Vlasov, S., Karimov, I., Abduazimov, V. Yarimo'tkazgichlar sirti fizikasi. Toshkent: Ilm Ziyo, 2010. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.

3. Teshaboyev, A., Zaynobidinov, S., Musayev, E.A. Yarimo'tkazgichlar va yarimo'tkazgichli asboblar texnologiyasi. Toshkent: Talqin, 2006. 336 b.

4. Nazirov, E.N., Nazirov, D.E., Teshaboyev, A.T. Yarimo'tkazgichlar fizikasi lug'ati. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. Toshkent: Universitet, 2008.

5. Varshni, Y.P. Temperature dependence of the energy gap in semiconductors. Physica. 1967;34(1):149–154. DOI: 10.1016/0031-8914(67)90062-6.

6. Green, M.A. Intrinsic concentration, effective densities of states, and effective mass in silicon. Journal of Applied Physics. 1990;67(6):2944–2954. DOI: 10.1063/1.345414.

7. Arora, N.D., Hauser, J.R., Roulston, D.J. Electron and hole mobilities in silicon as a function of concentration and temperature. IEEE Transactions on Electron Devices. 1982;29(2):292–295. DOI: 10.1109/T-ED.1982.20698.

8. Vurgaftman, I., Meyer, J.R., Ram-Mohan, L.R. Band parameters for III–V compound semiconductors and their alloys. Journal of Applied Physics. 2001;89(11):5815–5875. DOI: 10.1063/1.1368156.

9. Ma, J., Nissimagoudar, A.S., Li, W. First-principles study of electron and hole mobilities of Si and GaAs. Physical Review B. 2018;97:045201. DOI: 10.1103/PhysRevB.97.045201.

10.El Allali, M., Sørensen, C.B., Veje, E., Tidemand-Petersson, P. Experimental determination of the GaAs and $Ga_{1-x}Al_xAs$ band-gap energy dependence on temperature and aluminum mole fraction in the direct band-gap region. Physical Review B. 1993;48:4398–4404. DOI: 10.1103/PhysRevB.48.4398.

11.Viña, L., Logothetidis, S., Cardona, M. Temperature dependence of the dielectric function of germanium. Physical Review B. 1984;30:1979–1991. DOI: 10.1103/PhysRevB.30.1979.

UDC 535.34.546.26

EXTENDED ANALYSIS OF THE UV–VIS ABSORPTION SPECTRUM OF GRAPHENE OXIDE. URBACH ENERGY, TAUC MODEL AMBIGUITY AND sp^2 DOMAIN SIZE

Daminov Rakhimjon Shokir ugli,
Nanotechnology Development Center,
National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
daminov_r@nuu.uz
Ochilov Odil,
Nanotechnology Development Center,
National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
ochilovodil@mail.ru
Malikov Komiljon Kholmuratovich,
Nanotechnology Development Center,
National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
komiljonmalikov1995@gmail.com
Yoldoshev Ozodbek Yoldosh ugli
Nanotechnology Development Center,
National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
ozodbekyoldoshev997@gmail.com
Qambarova Mukhayyo Sodikjon kizi
Nanotechnology Development Center,
National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
muhayyoqambarova1@gmail.com
Ne'matova Zumrad Zayniddin kizi
National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan
toxirovazumrad@gmail.com

Abstract. *The ultraviolet–visible absorption spectra of graphene oxide synthesized by the Hummers method are analysed, yielding optical parameters not published previously. The Urbach energy is determined for the first time and equals 0.91 ± 0.01 eV, the exponential region spans 2.00–3.45 eV and is concentration-independent. A model comparison rules out a light-scattering artefact. The steepness parameter σ = kT/EU equals 0.028. Three methods of locating the n→π* shoulder differ by up to 20 nm. The sp^2 domain size is evaluated independently from optical and Raman data. The values obtained are proposed as baseline parameters for GO/Fe_3O_4 magneto-optical systems.*

Key words: *graphene oxide, Urbach energy, optical band gap, Tauc method, derivative spectroscopy, n→π* transition, sp^2 domain, disorder, magneto-optics, Hummers method.*

GRAFEN OKSIDINING UV-VIS YUTILISH SPEKTRINI KENGAYTIRILGAN TAHLILI. URBACH ENERGIYASI, TAUC MODELI NOANIQLIGI VA sp^2 DOMEN O'LCHAMI

Annotatsiya. *Maqolada Hummers usulida sintez qilingan grafen oksidining ultrabinafsha-ko'rinuvchi yutilish spektrlari kengaytirilgan tahlil qilinib, ilgari e'lon qilinmagan optik parametrlar aniqlandi. Urbach energiyasi birinchi marta hisoblanib, u 0,91 ± 0,01 eV ni tashkil etdi, eksponensial soha 2,00–3,45 eV kenglikda saqlanadi va natija konsentratsiyaga bog'liq emas. Model taqqoslash yo'li bilan kuzatilgan signal cheti yorug'lik tarqalishi artefakti emasligi ko'rsatildi. Tikkalik parametri σ = kT/EU 0,028 ga teng bo'ldi. n→π* yelkasining holati uchta usulda baholanib, ular orasidagi tafovut 20 nm ga yetishi aniqlandi. sp^2 domen o'lchami optik va Raman ma'lumotlaridan mustaqil baholandi. Olingan qiymatlar GO/Fe_3O_4 magnitooptik tizimlari uchun bazaviy parametrlar sifatida taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *grafen oksidi, Urbach energiyasi, optik zona kengligi, Tauc usuli, hosila spektroskopiyasi, n→π* o‘tish, sp² domen, tartibsizlik, magnitooptika, Hummers usuli.*

РАСШИРЕННЫЙ АНАЛИЗ СПЕКТРА УФ-ВИДИМОГО ПОГЛОЩЕНИЯ ОКСИДА ГРАФЕНА. ЭНЕРГИЯ УРБАХА, НЕОДНОЗНАЧНОСТЬ МОДЕЛИ ТАУКА И РАЗМЕР sp^2-ДОМЕНОВ

Аннотация. *В статье представлен расширенный анализ спектров ультрафиолетового и видимого поглощения оксида графена, синтезированного методом Хаммерса, в результате которого определены ранее не публиковавшиеся оптические параметры. Впервые рассчитана энергия Урбаха, составившая 0,91 ± 0,01 эВ, экспоненциальная область сохраняется в интервале 2,00–3,45 эВ, а результат не зависит от концентрации. Сравнением моделей показано, что наблюдаемый хвост не является артефактом светорассеяния. Параметр крутизны σ = kT/EU составил 0,028. Положение плеча n→π* оценено тремя методами, расхождение между которыми достигает 20 нм. Размер sp²-доменов независимо оценён по оптическим и рамановским данным. Полученные значения предлагаются как базовые параметры для магнитооптических систем GO/Fe_3O_4.*

Ключевые слова: *оксид графена, энергия Урбаха, оптическая ширина запрещённой зоны, метод Таука, производная спектроскопия, переход n→π*, sp²-домен, разупорядочение, магнитооптика, метод Хаммерса.*

Introduction. Graphene oxide (GO) is a two-dimensional material obtained by the chemical oxidation of graphite, in which sp^2- and sp^3-hybridized carbon regions coexist. Its electronic structure is governed precisely by the ratio of these two regions, and for this reason the accurate measurement of the optical characteristics is of primary importance when GO is applied in optoelectronics, sensing and energy storage devices [1, 2].

UV–Vis spectroscopy is one of the most widely used techniques for characterizing GO, and two indicators are normally extracted from it. the maximum near 230 nm assigned to the π→π* transition of aromatic C=C bonds, and the shoulder near 300 nm assigned to the n→π* transition of the carbonyl group [3, 4]. A third indicator, the optical band gap E_g obtained from the Tauc equation, is also widely reported [5, 6].

However, a considerable spread is observed in the literature for each of these indicators. values of 290–305 nm are quoted for the n→π* shoulder and 3.2–3.9 eV for the optical band gap [3, 4, 7]. Part of this spread does arise from genuine differences in the degree of oxidation between samples. The other part depends on the choice of the data-processing method, yet this second source is almost never quantified.

Furthermore, the Urbach energy E_U, which is a standard descriptor for disordered semiconductors, is only rarely reported for GO [8]. This quantity nevertheless characterizes the width of the distribution of localized states at the band edge and constitutes a direct quantitative measure of the structural disorder introduced by sp^3 defects.

The aim of the present work is, using a single well-characterized GO sample, (i) to determine the Urbach energy, (ii) to locate the n→π* shoulder by three independent methods and thereby quantify the method-dependent spread, (iii) to expose the ambiguity in the transition type within the Tauc model, and (iv) to evaluate the sp² domain size independently from optical and Raman data.

The GO sample synthesized and characterized by Raman, UV–Vis and SEM–EDS in [9] was taken as the object of investigation. The present paper re-processes the absorption spectra of that sample, all the analytical procedures and results reported below were not published in [9].

Object of investigation and methods applied.

Sample. GO was synthesized by the Hummers method [9]. A mixture of 1 g of natural graphite and 0.5 g of $NaNO_3$ was stirred in 75 mL of 98% H_2SO_4 in an ice bath (T < 5 °C) for 30 min, 4 g of $KMnO_4$ was added in small portions over 6 h (T ≤ 20 °C), the reaction was quenched with distilled water and 32% H_2O_2, the precipitate was washed with 1 M HCl and distilled water until pH 6–7 (8000 rpm) and dried at 50 °C for 24 h.

Measurement. UV–Vis absorption spectra were recorded on a Shimadzu UV-1900i spectrophotometer in a quartz cuvette (l = 1 cm) over the 200–600 nm range with a 0.5 nm step at concentrations of 0.01, 0.08 and 0.12 mg·mL^{-1}.

Analysis. The absorption coefficient was calculated as $\alpha = 2.303A/l$. In all the analyses below it is not the absolute value of α but its variation with photon energy that matters, so the results are independent of the proportionality factor.

The Urbach energy was obtained from the relation $\alpha = \alpha_0 \exp(h\nu/E_U)$ as the reciprocal of the slope of the linear region of the ln α versus $h\nu$ dependence [8]. The optical band gap was evaluated from the Tauc equation $(\alpha h\nu)^n = B(h\nu - E_g)$ for $n = 2$ (direct allowed transition) and $n = 1/2$ (indirect transition) [10]. The linear regions were not selected by hand but automatically. the widest window satisfying the condition $R^2 > 0.999$ was searched for. This approach removes the subjectivity involved in choosing the limits of the linear region.

Derivative spectra were computed with a Savitzky–Golay filter (third-order polynomial, window width 11–51 points), and the dependence of the result on the window width was checked separately. The Gaussian deconvolution was performed over the 3.0–6.15 eV range as the sum of two Gaussian components and a background, three different background models — exponential, power-law λ^{-n} and linear — were tested independently.

The size of the sp^2 clusters was estimated from the optical data using the Robertson–O'Reilly cluster model $E_g \approx 2|\beta|/\sqrt{N}$ ($|\beta| = 2.9$ eV, where N is the number of fused aromatic rings) [11], and from the Raman data using the Ferrari–Robertson relation $I_D/I_G = C'(\lambda)L_a^2$ ($C' \approx 0.0055$ Å^{-2}) [12]. All computations were carried out in Python 3 (NumPy, SciPy).

Results obtained and their analysis.

1. Absorption spectrum and the Beer–Lambert law. In the smoothed spectra the π→π* maximum was recorded at 230.5 nm for all three concentrations. The absorbance at 230.5 nm is linear in concentration ($R^2 = 0.9997$) with an intercept of 0.004, that is, effectively zero. From the slope the mass absorption coefficient $\varepsilon_{230} = 7.9$ mL·mg^{-1}·cm^{-1} was determined. This quantity is of practical value for the spectrophotometric control of the concentration of GO dispersions.

2. Dependence of the n→π* shoulder position on the method of estimation. The position of the shoulder was determined by three independent methods (Figure 1). The extremum of the first derivative gave 292.5–294.5 nm, the minimum of the second derivative 304–305 nm, and the Gaussian deconvolution 312.8–312.9 nm.




Figure 1. Location of the n→π* shoulder by three methods. (a) first derivative, (b) second derivative, (c) deconvolution into two Gaussian components and an exponential background (0.12 mg·mL^{-1}). The grey bands mark the range of values obtained for the two concentrations.

Each method is highly reproducible within itself. the difference between the two concentrations did not exceed 2 nm, and in the deconvolution the result remained within 311.6–312.9 nm even when the background model was changed three times. Nevertheless, the difference between the methods reached 20 nm, or 0.25 eV in energy units (Table 1).

Table 1. Dependence of the n→π* shoulder position on the method of estimation

Method of estimation	0.08 mg·mL⁻¹	0.12 mg·mL⁻¹	Energy, eV
First-derivative extremum	294.5 nm	292.5 nm	4.21–4.24
Second-derivative minimum	304.0 nm	305.0 nm	4.07–4.08
Gaussian deconvolution	312.9 nm	312.8 nm	3.96
Literature values [3, 4]	300–303 nm	—	4.09–4.13

Based on the resolution model developed in this work, the following experimental parameters were optimized: Boron target thickness, Detector-target distance and detector active area, Laboratory observation angles.

Through analytical modeling, these parameters can be adjusted to achieve minimal spectral broadening while preserving sufficient counting statistics for reliable measurement. The proposed optimization framework provides a practical approach for improving energy resolution and measurement efficiency in differential cross section studies using neutron generator based experimental systems.

The total energy resolution ($FWHM_{tot}$) was evaluated by combining all independent contributions, including intrinsic detector resolution, target energy straggling, neutron angular spread, and detector solid angle effects. For Figure 6, calculations were performed assuming a boron target thickness of 20 μm and a target-to-detector distance of L = 12 cm. The results show that the total FWHM exhibits a clear angular dependence due to kinematic sensitivity and geometric broadening, with better spectral resolution at forward angles compared to larger scattering angles. This provides guidance for selecting optimal detector placement and target parameters to ensure reliable peak separation of the ^{9}Be ground and excited states.




Figure 6. Total energy resolution ($FWHM_{tot}$) as a function of laboratory scattering angle for the ^{10}B(n,d)^{9}Be reaction.

Peak Separation Criteria and Optimization. Accurate separation of the ^{9}Be ground and excited state peaks is essential for reliable differential cross section measurements of the ^{10}B(n,d)^{9}Be reaction. The energy levels of the ^{9}Be residual nucleus, including the ground state and first few excited states, were obtained from evaluated nuclear data [10], which provide excitation energies and corresponding deuteron group energies used in peak identification (see evaluated nuclear level compilations). To ensure sufficient resolution of adjacent states, a commonly adopted separation criterion is:

$$|E_1 - E_2| > 1.5 \cdot FWHM_{tot} \quad (9)$$

where E_1 and E_2 are the deuteron energies associated with the ground and first excited states of ^{9}Be, respectively, and $FWHM_{tot}$ is the total energy resolution defined in Section 3. The fulfillment of this criterion strongly depends on observation angle, target thickness, and detector geometry. Therefore, systematic parameter variation was performed to identify the optimal experimental region. This criterion helps prevent artificial overlap of peaks in the measured spectrum and thus reduces systematic errors in cross section extraction.

Several key experimental parameters influence the ability to meet this peak separation criterion and must be carefully optimized:

While thicker targets increase reaction yield, they also enhance energy straggling, which broadens peaks. Conversely, thinner targets reduce straggling but may lead to lower counting statistics.

Increasing the distance between the target and detector reduces geometric broadening ($FWHM_{\theta_d}$) by decreasing the angular acceptance. However, this also reduces the solid angle and, therefore, the count rate. Due to two-body reaction kinematics, certain laboratory angles provide larger separation between deuteron energy peaks corresponding to different ^{9}Be states. Modeling using kinematic relations or simulation tools such as LISE++ can help identify optimal angles for detector placement [3].

By adjusting these parameters according to the separation criterion, the total FWHM can be minimized while ensuring that the ground and excited state peaks remain resolvable. Optimization of these factors also contributes to reducing the total measurement time without compromising energy resolution or statistical accuracy. The developed resolution model was applied to evaluate the expected experimental performance for the ^{10}B(n,d)^{9}Be reaction under realistic geometric and target conditions.

Individual broadening contributions, including intrinsic detector resolution, target straggling, neutron angular spread, and detector solid angle effects, were calculated for representative laboratory angles and target thicknesses. The total energy resolution was obtained by quadratic summation of these independent terms. The present study represents a theoretical evaluation of the expected experimental performance for the ^{10}B(n,d)^{9}Be reaction using a compact neutron generator. The results are based on kinematic calculations and LISE++ simulations aimed at assessing peak separation capability prior to experimental implementation [3].

For typical experimental parameters, the dominant contributions arise from target energy straggling and intrinsic detector resolution, while geometrical effects become significant at larger laboratory angles. For

the optimized configuration, the separation condition $|E_1 - E_2| > 1.5 \cdot FWHM_{tot}$ is satisfied across a broad range of laboratory angles. The separation margin decreases for thicker targets due to increased straggling but improves at forward angles where kinematic sensitivity is reduced.

The modeling results suggest the following practical recommendations: Select boron target thickness to balance reaction yield and energy straggling. Position detectors at laboratory angles that maximize peak separation according to two-body kinematics. Increase detector distance where feasible to reduce geometrical broadening while maintaining acceptable count rates. These findings demonstrate that careful analytical modeling enables optimization of spectral quality while minimizing total measurement time.

Conclusion. In this work, a comprehensive analytical model for the total energy resolution of the Δ*E*-*E* detection system was developed and applied to the ^{10}B(*n*,*d*)^{9}Be reaction using a neutron generator. All major broadening mechanisms including intrinsic detector resolution, energy straggling in the boron target, neutron angular spread, and detector geometrical acceptance—were systematically evaluated.

The combined resolution model enabled quantitative prediction of peak separation between the ground and first excited states of ^{9}Be. By applying a well-defined separation criterion, optimal experimental parameters were identified, including boron target thickness, detector distance, and laboratory observation angles, ensuring reliable peak discrimination while maintaining sufficient counting statistics.

The results demonstrate that careful modeling of resolution contributions allows efficient optimization of experimental conditions, leading to improved spectral quality and reduced acquisition time. This methodology provides a practical framework for differential cross section measurements using neutron generator-based systems and can be extended to other neutron-induced charged-particle reactions. The study defines a realistic parameter window in which separation of the ^{9}Be ground and excited states becomes experimentally feasible using compact neutron generator facilities.

Acknowledgements. "This work was supported by the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan (Grant No. FL-9024094149, *"Study of nucleon or cluster transfer nuclear reactions to solve problems in nuclear astrophysics and thermonuclear reactions"*)."

REFERENCES:

1. Generatory Neytronov. Metod izmereniya potoka bystrykh neytronov [Neutron Generators. Method for Measuring Fast Neutron Flux]. GOST 22751-77, IPK Izdatel'stvo Standartov, Moscow, USSR, 1977. (in Russian)

2. Artemov, S. V., et al. "Metody izmereniy spektrov bystrykh neytronov na neytronnom generatore NG-150 IYaF AN RUz" [Methods for measuring fast neutron spectra at the NG-150 neutron generator of INP AS RU]. Vestnik Molodykh Uchenykh [Bulletin of Young Scientists], pp. 27–31, 2019. (in Russian)

3. Tarasov, O. B., and Bazin, D. "LISE++: Radioactive beam production with in-flight separators." Nuclear Instruments and Methods in Physics Research Section B: Beam Interactions with Materials and Atoms, vol. 266, no. 19-20, pp. 4657–4664, 2008.

4. Artemov, S. V., et al. "Method for measuring the energy of fast neutrons by the recoil deuterons using a telescope of semiconductor Si detectors." Proceedings of the II International Scientific Forum "Nuclear Science and Technologies", Almaty, Kazakhstan, June 24–27, 2017, pp. 213–214.

5. Aripov, G. A., Kurbanov, B. I., and Zinovyev, V. G. "Opredeleniye soderzhaniya azota i bora metodom spektrometrii gamma-izlucheniya zakhvata neytronov" [Determination of nitrogen and boron content by neutron-capture gamma-ray spectrometry]. Gornyy Vestnik Uzbekistana [Mining Bulletin of Uzbekistan], no. 28, issue 1, p. 102, 2007. (in Russian)

6. Valkovic, V. Neutron Generators for Technical Applications. CRC Press, 2016.

7. Knoll, G. F. Radiation Detection and Measurement. 4th ed., John Wiley & Sons, 2010.

8. Ziegler, J. F., Ziegler, M. D., and Biersack, J. P. "SRIM – The stopping and range of ions in matter." Nuclear Instruments and Methods in Physics Research Section B, vol. 268, no. 11-12, pp. 1818-1823, 2010.

9. Marion, J. B., and Young, F. C. Nuclear Reaction Analysis: Graphs and Tables. North-Holland Publishing Company, 1968.

10.Brown, D. A., et al. "ENDF/B-VIII.0: The 8^{th} Major Release of the Nuclear Reaction Data Library with ENDF/B-VIII.0." Nuclear Data Sheets, vol. 148, pp. 1-142, 2018.

11.Leo, W. R. Techniques for Nuclear and Particle Physics Experiments. 2nd ed., Springer-Verlag, 1994.

UO‘K 620.3:535.21:546.26

3D O‘LCHAMLI GRAFEN NANOSTRUKTURALAR SINTEZIGA LAZER VA MATERIAL PARAMETRLARINING TA’SIRI

Sadullayev Jo‘rabek Oybekovich,
Urganch davlat universiteti Elektrotexnika va energetika kafedrasi o‘qituvchisi
Sotimova Mahbuba Kadamovna,
Urganch davlat universiteti Fizika kafedrasi o‘qituvchisi
**jurabek.s@urdu.uz*

Annotatsiya. *Ushbu ishda polimid (PI) substratida lazer-induksiyalangan 3D grafen nanostrukturalarining shakllanishiga lazer va material parametrlarining ta’siri nazariy, sonli va eksperimental yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Lazer-polimid o‘zaro ta’siri COMSOL Multiphysics muhitida chekli elementlar usuli (FEM) asosida modellashtirilib, lazer energiyasining yutilishi, issiqlik tarqalishi va sirt haroratining fazoviy-vaqt bo‘yicha evolyutsiyasi baholandi. Modelda polimidning issiqlik o‘tkazuvchanligi, issiqlik sig‘imi, zichligi va optik yutilish koeffitsiyentining haroratga bog‘liqligi hisobga olindi. Femtosoniyali lazer uchun skanerlash tezligi 0,05-0,20 m/s oralig‘ida o‘rganilib, tezlik kamayishi bilan issiqlik to‘planishi va maksimal sirt harorati 2400 K dan 2600 K gacha ortishi aniqlandi. Shuningdek, yutilish koeffitsiyentining A = 0,7; 0,8; 0,9 qiymatlaridagi rejimlari taqqoslanib, A ≈ 0,8 holati grafen hosil bo‘lish sifati, g‘ovaklik va termik barqarorlik nuqtayi nazaridan maqbul rejim sifatida belgilandi. Olingan sonli natijalar SEM va Raman tahlillari, shuningdek, LIG ning elektr qarshiligini o‘lchash natijalari bilan bog‘lanib, lazer parametrlarini boshqarish orqali 3D grafen strukturasini maqsadli shakllantirish imkoniyati ko‘rsatildi.*

Kalit so‘zlar: *lazer-induksiyalangan grafen, 3D grafen, polimid, femtosekundali lazer, COMSOL Multiphysics, FEM, issiqlik uzatish, lazer yutilishi, skanerlash tezligi, Raman spektroskopiyasi, SEM*

ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ЛАЗЕРА И МАТЕРИАЛА НА СИНТЕЗ 3D ГРАФЕНОВЫХ НАНОСТРУКТУР

Аннотация. *В данной работе на основе теоретического, численного и экспериментального подходов проанализировано влияние параметров лазера и материала на формирование индуцированных лазером 3D графеновых наноструктур на полиимидной (ПИ) подложке. Взаимодействие лазера с полиимидом моделировалось в среде COMSOL Multiphysics методом конечных элементов (МКЭ), с помощью которого были оценены поглощение лазерной энергии, распространение тепла и пространственно-временная эволюция температуры поверхности. В модели учтена температурная зависимость теплопроводности, теплоёмкости, плотности и коэффициента оптического поглощения полиимида. Для режима фемтосекундного лазера скорость сканирования исследовалась в диапазоне 0,05–0,20 м/с, при этом установлено, что снижение скорости сканирования приводит к накоплению тепла и повышению максимальной температуры поверхности с 2400 К до 2600 К. Также были сопоставлены режимы с коэффициентом поглощения A = 0,7; 0,8 и 0,9, при этом значение A ≈ 0,8 определено как оптимальный режим с точки зрения качества формирования графена, пористости и термической стабильности. Полученные численные результаты были сопоставлены с данными SEM и рамановской спектроскопии, а также с результатами измерения электрического сопротивления индуцированного лазером графена (LIG), что показало возможность целенаправленного формирования структуры 3D графена посредством управления параметрами лазера.*

Ключевые слова: *индуцированный лазером графен, 3D графен, полиимид, фемтосекундный лазер, COMSOL Multiphysics, МКЭ, теплоперенос, поглощение лазерного излучения, скорость сканирования, рамановская спектроскопия, SEM.*

INFLUENCE OF LASER AND MATERIAL PARAMETERS ON THE SYNTHESIS OF 3D GRAPHENE NANOSTRUCTURES


Abstract. *This study analyzes the influence of laser and material parameters on the formation of laser-induced 3D graphene nanostructures on a polyimide (PI) substrate, based on theoretical, numerical, and experimental approaches. The laser–polyimide interaction was modeled in the COMSOL Multiphysics environment using the finite element method (FEM), through which the absorption of laser energy, heat*

propagation, and the spatiotemporal evolution of the surface temperature were evaluated. The model accounted for the temperature dependence of the polyimide's thermal conductivity, heat capacity, density, and optical absorption coefficient. For the femtosecond laser regime, the scanning speed was investigated in the range of 0.05–0.20 m/s, and it was established that a decrease in scanning speed leads to heat accumulation and an increase in the maximum surface temperature from 2400 K to 2600 K. Furthermore, absorption coefficient regimes of A = 0.7, 0.8, and 0.9 were compared, and A ≈ 0.8 was identified as the optimal regime in terms of graphene formation quality, porosity, and thermal stability. The obtained numerical results were correlated with SEM and Raman analyses, as well as with electrical resistance measurements of the laser-induced graphene (LIG), demonstrating the possibility of purposefully controlling 3D graphene structure formation through laser parameters.

Keywords: *laser-induced graphene, 3D graphene, polyimide, femtosecond laser, COMSOL Multiphysics, FEM, heat transfer, laser absorption, scanning speed, Raman spectroscopy, SEM.*

Kirish. Grafen va uning uch o‘lchamli g‘ovakli nanostrukturalari yuqori elektr o‘tkazuvchanligi, katta solishtirma sirt maydoni, mexanik mustahkamligi va egiluvchanligi sababli energiya saqlash qurilmalari, sensorlar va egiluvchan elektronika uchun eng istiqbolli funksional materiallardan biri hisoblanadi. Lazer-induksiyalangan grafen (LIG) texnologiyasi polimer yuzasida grafensimon g‘ovakli strukturalarni bir bosqichda, maskasiz va to‘g‘ridan-to‘g‘ri hosil qilish imkonini beradi [1-3]. Biroq LIG sifati lazer quvvati, impuls davomiyligi, energiya zichligi, skanerlash tezligi va lazer nuri diametri bilan bir qatorda polimerning optik yutilishi va termofizik xossalariga ham kuchli bog‘liq. Bunday ko‘p parametrli, ko‘p fizikali jarayonni faqat tajriba yo‘li bilan optimallashtirish vaqt va resurs talab qiladi, shu sababli lazer-material tizimini sonli modellashtirish optimal texnologik rejimlarni oldindan aniqlashning samarali vositasiga aylanadi [4-6].

Tadqiqot usuli. Tadqiqotda polimid substratida lazer ta’sirida yuzaga keladigan termik jarayonlar COMSOL Multiphysics dasturida chekli elementlar usuli (FEM) asosida modellashtirildi. Lazer energiyasining materialda yutilishi Beer-Lambert qonuni bilan, issiqlik tarqalishi esa Furye issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi bilan tavsiflandi; lazer nurlanishi hajmiy (fs rejim) va sirt (ms rejim) issiqlik manbayi sifatida qaraldi. Modellashtirishda polimid qatlamining qalinligi 168 mkm, zichligi 1400 kg/m³ deb olindi, uning issiqlik o‘tkazuvchanligi, issiqlik sig‘imi va optik yutilish koeffitsiyentining haroratga bog‘liq empirik ifodalari (Ruan va boshqalar, 2018 asosida) hisobga olindi. Femtosoniyali lazer uchun 250 fs impuls davomiyligi, 10 kHz takrorlanish chastotasi va 100-150 mkm lazer dog‘i diametri, ayrim hisoblarda esa 100 mkJ impuls energiyasi va 0,2 m/s gacha skanerlash tezligi qo‘llanildi. Tadqiqotda SEM va Raman spektroskopiyasi, shuningdek, SMU asosidagi ikki nuqtali elektr qarshilikni o‘lchash usuli olingan sonli natijalarni eksperimental jihatdan baholash uchun qo‘llanildi.




1-rasm. Lazer nurlanishining polimid sirtida issiqlik manbayi sifatida modellashtirilishining sxematik ko‘rinishi

Modelning asosiy g‘oyasi lazer energiyasini lokal issiqlik manbayi sifatida berish va uning material ichida tarqalishi natijasida yuzaga keladigan harorat maydonini aniqlashdan iborat. Bu yondashuv lazer quvvati, skanerlash tezligi va yutilish koeffitsiyentining termik ta’sir zonasiga ta’sirini miqdoriy baholash imkonini beradi.


Asosiy natijalar. Vaqtga bog‘liq COMSOL simulyatsiyalari femtosoniyali lazer skanerlash tezligining harorat maydonining fazoviy va vaqtinchalik evolyutsiyasini qanday boshqarishini ko‘rsatdi: skanerlash tezligi 0,05 m/s dan 0,20 m/s gacha oshganda, yuzadagi maksimal harorat taxminan 2600 K dan 2400 K gacha muntazam ravishda pasaydi (2-rasm), oraliq nuqtalarda esa 0,10 m/s da ≈2500 K va 0,15 m/s da ≈2480 K qiymatlar qayd etildi. Bu tendensiya skanerlash tezligini LIG hosil bo‘lish jarayonining asosiy boshqaruvchi texnologik parametrlaridan biri sifatida ko‘rsatadi: past tezliklarda lazer-material o‘zaro ta’sir

vaqti uzayib, ketma-ket impulslar orasida material to‘liq sovib ulgurmaydi, natijada issiqlik kumulyativ ravishda to‘planadi va sirt harorati polimiddan olingan grafen uchun xarakterli 2500-3500 K grafitlanish oynasiga yaqinlashadi yoki unga tushadi. Yuqori skanerlash tezliklarida esa energiya to‘planishi kamayib, cho‘qqi harorat grafitlanish oynasining pastki chegarasidan pastda qoladi, bu esa nisbatan yupqaroq va nuqsonliroq grafen qatlami hosil bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga, eng past tezlikda (0,05 m/s) issiqlik ta’sir zonasining kengayishi va mahalliy qizib ketish yoki ablyatsiya xavfining ortishi ham kuzatildi - demak, grafen sifati va substratning termik shikastlanishi o‘rtasida optimal texnologik oyna mavjud.



2-rasm. Skanerlash tezligining maksimal sirt haroratiga ta’siri: 0,05-0,20 m/s diapazonida Tmax ning monoton pasayish tendensiyasi

Polimidning lazer nurlanishini yutish koeffitsiyenti (A) ham alohida boshqaruvchi parametr sifatida o‘rganildi. A = 0,7 holatida yutilgan energiya miqdori ayrim zonalarda grafitlanish uchun yetarli bo‘lmay qoladi, struktura yetarlicha rivojlanmaydi. A = 0,8 da lazer energiyasining 80 foizi yutilib, karbonizatsiya va uch o‘lchamli g‘ovak grafen tarmog‘i shakllanishi uchun eng maqbul muvozanat kuzatiladi: polimer tarkibidan ajralayotgan CO, CO_2, H_2 va N_2 gazlari material ichida mikrokanallar hosil qilib, yuqori g‘ovaklikka ega, nisbatan kam nuqsonli struktura shakllanishiga xizmat qiladi. A = 0,9 da esa grafitlanish darajasi eng yuqori bo‘lsa-da, ortiqcha qizish tufayli lokal ablyatsiya va strukturaviy nuqsonlar ehtimoli oshadi. Shunga muvofiq, uzluksiz (millisekund) lazer rejimida ham 1,0 J/sm² energiya oqimida sirt harorati 2100-2200 K ga yetib, grafen hosil bo‘lishi uchun yetarli fizik sharoit yaratilishi ko‘rsatildi (3-rasm).




3-rasm. COMSOL Multiphysics hisoblashida lazer ta’siridagi polimid qatlamining harorat maydoni taqsimoti

Sonli modelda materialning issiqlik o‘tkazuvchanligi, issiqlik sig‘imi, zichligi va optik yutilish koeffitsiyentining haroratga bog‘liq o‘zgarishlarini hisobga olish harorat maydoni va issiqlik gradientlarini aniqroq tavsiflash imkonini berdi. Xususan, polimidning issiqlik sig‘imi harorat ~900-950 K ga yetganda maksimal qiymatga (~2080 J/(kg*K)) erishib, undan keyin pasayadi, bu esa polimidda fazaviy yoki strukturaviy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishidan dalolat beradi. Bu esa lazer parametrlaridan kelib chiqib grafen hosil bo‘lish shartlarini oldindan baholash uchun modeldan foydalanish imkonini yaratadi.

Eksperimental tasdiq. Sonli modellashtirish natijalari SEM va Raman spektroskopiyasi bilan taqqoslangan. CO_2 va Yb:YAG lazer nurlari yordamida sintezlangan ko‘p qatlamli va bitta qatlamli LIG namunalarining SEM mikrofotosuratlarida o‘zaro bog‘langan, g‘ovakli uglerod skeleti kuzatildi, bu esa uch o‘lchamli grafen tarmog‘ining rivojlanganligini tasdiqladi. Raman spektrlarida D, G va 2D zonalarining mavjudligi grafensimon uglerod strukturasining shakllanishini tavsiqladi (4-rasm). Femtosoniyali lazer

plazmasining ~5000 K gacha yetadigan yuqori haroratiga qaramay, polimidning o‘zi bir necha yuz darajali haroratda qolishi past nuqsonli grafen qatlamini hosil qilish uchun yetarli emasligi aniqlandi; shu sababli nuqson zichligini kamaytirish uchun vakuumda (500 °C, 45 daqiqa, suyuq azot bug‘i muhitida) qo‘shimcha tavlash usuli qo‘llanildi, bu esa qiyosiy Raman tahlilida D/G nisbatining kamayishi va 2D cho‘qqisining kuchayishi orqali grafen tarmog‘ining qisman tiklanganini ko‘rsatdi.



4-rasm. CO_2 va Yb:YAG lazer nurlari yordamida sintezlangan ko‘p qatlamli (a) va bitta qatlamli (b) grafenning SEM mikrofotosurati hamda mos Raman spektrlari (c)

LIG ning elektr xossalari SMU asosidagi ikki nuqtali o‘lchash usuli (5 V ochiq zanjir kuchlanishida) yordamida baholandi. Olingan natijalarga ko‘ra, femtosoniyali lazer skanerlash sonining ortishi bilan LIG ning elektr qarshiligi izchil pasayish tendensiyasini namoyon qildi: ikki marta skanerlashda qarshilik taxminan 60 Om/sm ni tashkil etsa, to‘rt marta skanerlashda ~45 Om/sm, olti marta skanerlashda ~20 Om/sm gacha, o‘nta ketma-ket skanerlashda esa ~10 Om/sm gacha pasaydi. Bu natija qo‘shimcha skanerlashlar grafen qatlamlari orasidagi bog‘lanishni mustahkamlab, umumiy o‘tkazuvchanlikni oshirishini tasdiqlaydi. Shuningdek, 40 mm/s skanerlash tezligida ketma-ket ablyatsiyalangan chiziqlar orasidagi masofaning kamayishi ham qarshilikning pasayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Xulosa. Lazer nurlanishi ta’sirida polimid substratida 3D grafen nanostrukturalarining shakllanishi lazer energiyasining yutilishi, issiqlik tarqalishi, piroliz, karbonizatsiya va grafitlanish bilan bog‘liq ko‘p fizikaviy jarayon ekanligi ko‘rsatildi. COMSOL Multiphysics asosida ishlab chiqilgan model lazer parametrlarini, xususan, skanerlash tezligi va optik yutilish koeffitsiyentini - harorat maydoni bilan bog‘lash imkonini berdi. 0,05-0,20 m/s skanerlash tezliklari uchun maksimal haroratning mos ravishda taxminan 2600-2400 K oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi. Yutilish koeffitsiyenti uchun A ≈ 0,8 rejimi grafen hosil bo‘lish sifati, g‘ovaklik va termik barqarorlik nuqtayi nazaridan maqbul deb baholandi. Natijalar SEM, Raman tahlillari hamda elektr qarshilikni o‘lchash natijalari bilan bog‘lanib (skanerlash soni 2 dan 10 gacha ortganda qarshilikning ~60 Om/sm dan ~10 Om/sm gacha pasayishi), lazer parametrlarini oldindan tanlash va 3D LIG sintezini boshqarish uchun ilmiy asos yaratdi.

ADABIYOTLAR:

1. H. Kumar, et al. Graphene Properties, Synthesis and Applications: A Review. AIMS Materials Science, 2022.

2. M. Romero, et al. Three-Dimensional (3D) Laser-Induced Graphene: Structure, Properties, and Application to Chemical Sensing. ACS Applied Materials & Interfaces, 2021.

3. S. Chen, et al. Laser-Induced Graphene for Bioelectronics and Soft Actuators. Advanced Functional Materials, 2021.

4. X. Liu, et al. Laser-Induced Graphene Structures: From Synthesis and Applications to Future Prospects. Materials Today, 2023.

5. R. Murray, et al. Design of Experiments and Optimization of Laser-Induced Graphene. ACS Omega, 2021.

6. X. Ruan, R. Wang, J. Luo, Y. Yao, T. Liu. Experimental and Theoretical Study of Thermal Properties of Polyimide. Materials & Design, 2018.

UO‘K 621.373.8

NANOSEKUNDLI IMPULSLI LAZER ABLATSIYASI YORDAMIDA METALL SIRTLARINI QORAYTIRISH

Shamuratov Shuhrat Baxtiyar o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedrasi o‘qituvchisi
Shuhratbek7434@gmail.com
O‘rinov Bog‘ibek G‘ayrat o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Elektrotexnika va energetika” kafedrasi doktoranti
bogibek.o@urdu.uz

Annotatsiya. *Biz metall sirtlarining qaytaruvchanligini (reflektivligini) kamaytirish uchun nanosekundli impulsli lazer ablatsiyasidan foydalandik. Qaytaruvchanlikning o‘zgarishi turli lazer skanerlash qadamlarida (ya’ni turli impuls zichligi darajalarida) o‘rganildi, olingan tendensiyalar esa ablatsiya tufayli yuzaga kelgan morfologik va tarkibiy o‘zgarishlar bilan taqqoslandi. Mis namunalarida shu narsa aniqlandiki, sirtning qorayishiga lazer bilan bevosita o‘yish emas, balki sovuyotgan ablatsiya bulutida hosil bo‘lib, keyin sirtga qayta tushib qolgan nanoklasterlar va nanozarrachalar sabab bo‘lgan. Model hisob-kitoblarimiz mikro va nano-strukturalarning, shuningdek, mis oksidlarining ablatsiyalangan mis sirtining qaytaruvchanligini kamaytirishdagi rolini tasdiqladi.*

Kalit so‘zlar: *lazer ablatsiyasi, sirt modifikatsiyasi, lazer yordamida qoraytirish, nanostrukturalar, past qaytaruvchanlik, mis (II)-oksidi (CuO), nanozarrachalar, Nd:YAG lazer, sirt morfologiyasi, qaytaruvchanlik spektri.*

DARKENING OF METAL SURFACES BY NANOSECOND PULSED LASER ABLATION

Abstract. *Nanosecond pulsed laser ablation was applied to reduce the reflectivity of metal surfaces. Changes in reflectivity were studied for different laser scanning pitches (i.e., different pulse-density levels), and the observed trends were compared with the morphological and compositional changes induced by ablation. For copper samples, it was found that surface darkening was not caused by direct laser etching, but by nanoclusters and nanoparticles formed in the cooling ablation plume, which subsequently redeposited onto the surface. Model calculations confirmed the role of micro- and nanostructures, as well as copper oxides, in reducing the reflectivity of the ablated copper surface.*

Keywords: *laser ablation, surface modification, laser darkening, nanostructures, low reflectivity, copper (II) oxide (CuO), nanoparticles, Nd:YAG laser, surface morphology, reflectivity spectrum.*

ПОТЕМНЕНИЕ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛОВ ПРИ ПОМОЩИ НАНОСЕКУНДНОЙ ИМПУЛЬСНОЙ ЛАЗЕРНОЙ АБЛЯЦИИ

Аннотация*. Для снижения отражательной способности металлических поверхностей была применена наносекундная импульсная лазерная абляция. Изменение отражательной способности изучалось при различных шагах лазерного сканирования (то есть при разных уровнях плотности импульсов), а полученные закономерности сопоставлялись с морфологическими и структурными изменениями, вызванными абляцией. Установлено, что на образцах меди потемнение поверхности вызвано не непосредственным лазерным травлением, а наночастицами и нанокластерами, образующимися в остывающем абляционном облаке и впоследствии оседающими на поверхность. Модельные расчёты подтвердили роль микро и наноструктур, а также оксидов меди, в снижении отражательной способности абляционной поверхности меди.*

Ключевые слова: *лазерная абляция, модификация поверхности, лазерное потемнение, наноструктуры, низкая отражательная способность, оксид меди (II) (CuO), наночастицы, Nd:YAG лазер, морфология поверхности, спектр отражения.*

Kirish. So‘nggi yillarda yorug‘lik yutilishini maksimal darajaga yetkazadigan sirt-modifikatsiyalangan materiallarga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshdi. Bunday yuqori yutuvchanlikka ega, qoraytirilgan materiallar detektorlar samaradorligini oshirishdan tortib, quyosh batareyalari samaradorligini

yaxshilashgacha, harbiy kamuflyaj va hashamatli mahsulotlarda estetik maqsadlarda foydalanishgacha bo‘lgan turli sohalarda qo‘llanilmoqda. Talabning bunday o‘sishi sirtni qoraytirish texnikalari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlarni va bu xususiyatlarga erishishning innovatsion usullarini ishlab chiqishni rag‘batlantirdi. Bundan tashqari, lazer ablatsiyasi orqali sirtni modifikatsiya qilish nafaqat aniq material olib tashlash uchun, balki issiqlik o‘tkazuvchanligi, optik va morfologik xususiyatlarni nozik sozlash uchun ham istiqbolli yondashuv bo‘lishi mumkin, xususan, tibbiy qurilmalar, energiya saqlash tizimlari va mikrostrukturalangan optik komponentlarni ishlab chiqishda ko’rish mumkin [1].

Bunday yondashuvlardan biri anodli oksidlash jarayoni bo‘lib, u po‘lat sirtlarini qoraytirish uchun qo‘llanilgan va natijada korroziyaga qarshi xususiyatlar hamda tashqi ko‘rinish yaxshilangan. Titan va uning qotishmalarini qoraytirishga ham e'tibor qaratilgan bo‘lib, bunda kerakli sirt xususiyatlariga erishish uchun kimyoviy usullar qo‘llanilgan [2]. Lazer aniqlik texnikalaridan foydalanish materiallar chidamliligini oshirishga yordam berishini ko‘rsatilgan, bu esa nanostrukturalarning qoplamalar shakllanishiga ta’sirini tushunish uchun ham dolzarbdir [8]. Plazma asosidagi texnikalardagi yutuqlar ham titan dioksidi plyonkalarini qoraytirish usullarini rivojlantirishga hissa qo‘shdi [3]. Bundan tashqari, alyuminiy plastinkalar ustidagi bir va ikki qatlamli interferensiya qoplamalaridan foydalanish yuqori yutuvchanlikka ega rangli bo‘yoq qoplamalarini yaratishga olib keldi [4]. Mis substrati ustida yuqori yutuvchanlikka ega CuO qatlamini o‘stirish uchun kimyoviy usulni ishlab chiqilgan, bu esa samarali qoraytirilishi mumkin bo‘lgan materiallar doirasini yanada kengaytirdi [5].

Yuqoridagi usullarning kamchiligi shundaki, ularning ko‘pchiligi material uchun o‘ziga xos bo‘lib, ekologik jihatdan har doim ham qulay emas. Lazerlar o‘zining ko‘p qirraliligi, foydalanishning qulayligi va kontaktsiz ishlash xususiyatlari tufayli sirtni qoraytirish uchun, ayniqsa, istiqbolli vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Femtosekundli mikroishlov berish yuqori yutuvchanlikka ega sirt strukturalarini yaratish uchun qo‘llanilgan [9], nanosekundli lazer ablatsiya texnikasi esa nikel va zanglamaydigan po‘lat sirtlarida yutilishni kuchaytiruvchi strukturalar hosil qilish uchun ishlatilgan [6, 7]. Titan qotishmasini femtosekundli lazer bilan teksturalash uning mexanik yaxlitligini saqlagan holda, mikro-nano gibrid sirt strukturalarini hosil qilish orqali antirefleksion xususiyatlarini yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatishgan [8]. Materiallar mikrostrukturasini nozik sozlash mexanik xususiyatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini, xuddi sirtni qoraytirish kabi ko‘rsatishgan. Tadqiqotlar dinamik sharoitlarda material xatti-harakatini modellashtirish misollar keltirib o‘tgan, bu esa lazer ablatsiyasi natijasida yuzaga keladigan mikrostruktura o‘zgarishlarini tahlil qilish uchun ahamiyatlidir.

Biroq nanosekundli impulslar yordamida metallarni qoraytirish hali dastlabki bosqichda bo‘lib, bu borada qaytaruvchanlikning kamayish mexanizmi va sirtdagi struktura shakllanish jarayoni haqida ochiq savollar mavjud. Femtosekundli lazer nurlanishi holatida optik xususiyatlarning o‘zgarishi va sirt morfologiyasining modifikatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflashga qaratilgan bir qator tadqiqotlar chop etilgan bo‘lsa-da, bu jarayonlar nanosekundli rejimda batafsil o‘rganilmagan. Nanosekundli lazer impulslarining sirt qaytaruvchanligiga qanday ta’sir qilishini tushunish tegishli mikro- va nanostrukturalarning rivojlanishi hamda qaytaruvchanlik kamayishi mexanizmiga oid ochiq savollarga javob berishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotda biz nanosekundli lazer impulslarining metallar (mis, titan va alyuminiy) sirt optik xususiyatlarini qanday modifikatsiya qilishi haqidagi ba’zi dolzarb savollarga javob berishga harakat qilamiz [1].

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida duralyumin, titan va mis plastinkalari tanlandi. Namunalarning lazer bilan nurlantirilishi Nd:YAG lazer tizimi (Q-smart450, Quantel, to‘lqin uzunligi: 1064 nm, takrorlanish chastotasi: 10 Hz, impuls davomiyligi: 10 ns) impulslari yordamida amalga oshirildi. Impuls energiyasi 35 dan 196 mJ gacha o‘zgartirildi. Lazer nuri diametri 900 mkm bo‘lgan nuqtaga fokuslandi va 3, 6, 12 va 24 J/sm² lazer fluenslari (energiya zichliklari) qo‘llanildi. 10 mm × 13 mm o‘lchamli to‘rtburchak maydon ikkita qadamli dvigatel yordamida namuna metall plastinkalarni x va y yo‘nalishlarida siljitish orqali nurlantirildi. Siljish tezligini 9 mm/s dan 0,6 mm/s gacha o‘zgartirish orqali birlik yuzaga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha lazer impulslari soni o‘zgartirildi. X va y yo‘nalishlarida 900, 450, 180, 90 va 60 mkm skanerlash qadamlari (ya’ni ketma-ket nurlantirilgan nuqtalar orasidagi masofalar) qo‘llanildi, bu esa mos ravishda 0%, 50%, 80%, 90% va 93% lateral (yon) qoplanish darajalarini beradi.

Perpendikulyar tushayotgan yorug‘lik uchun qayta ishlangan maydonlarning umumiy qaytaruvchanligi (spekulyar va sochilgan) integrallovchi sfera bilan jihozlangan UB-ko‘rinadigan skanerlovchi spektrofotometr (Shimadzu UV-2101PC) yordamida 250–800 nm to‘lqin uzunligi diapazonida o‘lchandi. Namunalar morfologiyasi Hitachi-S4700 skanerlovchi elektron mikroskopi (SEM) va Thermo Scientific Scios 2 DualBeam fokuslangan ion nurli skanerlovchi elektron mikroskopi (FIB-SEM) yordamida o‘rganildi. Morfologik tadqiqotlar uchun elektron nur qo‘zg‘atishi natijasida chiqarilgan ikkilamchi elektronlar (Vacc.=10 kV, Ie=10 μA) Everhart–Thornley detektori bilan qayd etildi. Elementlar tahlili uchun Rontec

XFlash silikon dreyf detektori va QuanTax 1.6 dasturiy ta'minotiga ega signal qayta ishlash bloki bilan energodispersion rentgen spektroskopiyasi (EDX) qo'llanildi. Lazer bilan qayta ishlangan sirtlarning kimyoviy holati XR50 ikki anodli rentgen manbayi va Phoibos 150 yarim sferik analizatorga ega Specs XPS asbobi yordamida ham o'rganildi. Namunalar Al Kα nurlanishi bilan qo'zg'atildi. O'lchov davomida kamera bosimi $1 \cdot 10^{-8}$ mbardan past bo'ldi. Lazer bilan qayta ishlangan namunalar sirtining zaryadlanishini bartaraf etish uchun (mis namunalaridan tashqari) o'lchov paytida elektron neytrallovchi qurilma (flood gun) ishlatildi.

Natijalar va ularning tahlili. Nurlanish uchala metall plastinkaning ham sirtida ko'rinadigan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Biroq qorayish faqat mis plastinkalarida kuzatildi. Duralyumin kulrang tusga, titan esa och ko'k-yashil tusga kirdi.

Duralyumin

Elektron-mikroskopik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nuqtalar qoplanmagan va yarim qoplangan skanerlashlarda (450 mkm skanerlash qadami) lazer bilan ishlov berish nurlantirilgan nuqtalarning markaziy qismidagi sirt mikro-notekisligini silliqlagan. Skanerlash qadamini kamaytirish (ya'ni sirt impuls zichligini oshirish) orqali dastlab mikrostrukturali sirt hosil bo'lgan, keyin esa eng kichik qadamlarda mikrostrukturalar ustida nozik nanostrukturalar ham shakllangan. Qaytaruvchanlikdagi o'zgarishlar va sirt strukturasini taqqoslasak, silliqlangan sirtning qaytaruvchanligi ortishini, mikrostrukturali hamda mikro va nanostrukturali sirtlarning qaytaruvchanligi esa kamayishini ko'rish mumkin.

Titan

Titan namunalarida qaytaruvchanlikning ancha murakkab o'zgarishi kuzatildi. Lazer nuqtalari bir-biriga ustma-ust tushmagan holatda, nurlantirilgan maydonning qaytaruvchanligi asl sirt notekisligining silliqlanishi tufayli oshgan, xuddi duralyuminda kuzatilganidek. Skanerlash qadamini (450, 180 va 90 mkm gacha) kamaytirganimizda qaytaruvchanlik kamaydi, biroq eng yuqori impuls zichligida (ya'ni 60 mkm skanerlash qadamida) u yana oshdi. Qaytaruvchanlik spektrida 180, 90 va 60 mkm skanerlash qadamlari uchun 350–600 nm to'lqin uzunligi diapazonida ba'zi xarakterli cho'qqilar ham paydo bo'ldi. XPS va EDX o'lchovlariga asoslanib, biz bu cho'qqilar nurlantirilgan sirt qatlamida turli titan oksidlari (TiO_2, Ti_2O_3)) shakllanganligidan dalolat berishini aniqladik, bu esa avvalgi kuzatuvlar bilan mos keladi [2]. Cho'qqilarning joylashuvi va nisbatlari qo'llanilgan fluensga bog'liq bo'lib, bu turli titan oksidlarining miqdori qo'llanilgan fluensga bog'liqligini bildiradi.

Mis

Mis holatida nurlantirilgan sirtning qaytaruvchanligi o'rganilgan to'lqin uzunligi diapazonida keskin kamaydi. Elektron-mikroskopik tasvirlar qorayishga uchragan maydonlarda mikrostrukturalar ustida juda nozik nanostruktura hosil bo'lganini tasdiqladi. Bizning XPS va EDX o'lchovlarimiz sirtning yuqori qatlami (<1 mkm) deyarli faqat CuO dan iborat ekanligini isbotladi [5].

Misdagi qora qatlam shakllanishini o'rganish

Qora sirt qatlami shakllanishida qanday jarayonlar ishtirok etishini aniqlash uchun keyingi tajribada namuna plastinka nurlantirish davomida siljitilmadi, ya'ni faqat kichik, aniq bir maydon ablatsiyaga uchratildi. Qo'llanilgan fluens 24 J/sm² bo'lib, impulslar soni 1000 taga teng edi. Optik mikroskop tasviri shuni ko'rsatadiki, ablatsiyaga uchragan maydonning qaytaruvchanligi aslida oshgan, qorongi qism esa lazer nurlantirgan nuqta emas, balki uni o'rab turgan hudud ekan. Silliq va yaltiroq ablatsiya kraterini keng qora tasma bilan o'ralgan tor yorqin halqa qurshab olgan. SEM tasvirlari ablatsiya chuqurchasining markazi silliq ekanligini, yorqin halqa esa faqat mikrostrukturalashganligini ko'rsatadi, keng qora tasmada esa mikrostrukturalar to'liq nanostrukturalangan material bilan qoplangan.

52° burchak ostida olingan SEM tasvirlari qorongi hududda nanostrukturalangan sirtga ega tuxumsimon mikrostrukturalar borligini yanada aniqroq ko'rsatadi. Fokuslangan ion nuri (FIB) kesish usuli bilan olingan ko'ndalang kesim (FIB: Ga ion toki: 300 pA, kesim o'lchami: 5 mkm × 10 mkm × 5 mkm) tuxumsimon shakllanishlarning shoxlangan-g'ovaksimon strukturasini yanada yaqqolroq ochib berdi. Ushbu struktura xususiyatlarining qorongi sirtga sabab bo'lishi haqiqatan ham qayta tushib qolgan ablatsiyalangan zarrachalar tufayli ekanligini bilish uchun biz nurlantirishni namuna vertikal holatda turgan holda takrorladik. Bu holatda optik tasvirlarda sirtning qorayishi umuman kuzatilmadi. Faqat markazda o'yilgan chuqurcha, uni yorqin halqa va yorqin tasma o'rab turganligining kuzatilishi shuni ko'rsatadiki, ablatsiyalangan nanozarrachalar - bu holatda ular sirtga qaytib tusha olmagani sababli - sirtning qorayishida muhim rol o'ynaydi. SEM tadqiqotlari bu keng yorqin halqada faqat sachragan va qotib qolgan eritilgan sachramalar va tomchilarni ko'rsatdi, nanostrukturalar esa umuman topilmadi. Bu keng yorqin halqada qorayish va nanostrukturalarning yo'qligi sirtning qorayishi va nanostruktura qoplamasi bir-biri bilan bog'liq hodisalar ekanligini va ular ablatsiyalangan zarrachalarning qayta tushib qolishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Ta’sirlangan hududlardagi mis va kislorodning atom nisbati gorizontal holatda ablatsiyaga uchratilgan namunaning EDX tahlili orqali aniqlandi. Biz ablatsiya chuqurchasi va unga yaqin joydagi sirt asosan sof misdan iborat ekanligini, keng qora hududdagi sirt qatlami esa oksidlanganligini aniqladik. Olingan taxminan 1:1 bo‘lgan $Cu{:}O$ atom nisbati qorongi hududda qora birikma bo‘lgan CuO mavjudligidan dalolat beradi. Vertikal nurlantirilgan namuna uchun oksidlangan hudud torroq bo‘ldi, $Cu{:}O \approx 1{:}1$ nisbati esa faqat ablatsiya chuqurchasidan uzoqroqda aniqlandi.


Dastlabki natijalar qorayish qayta tushib qolayotgan ablatsiyalangan zarrachalar tufayli ekanligini ko‘rsatgani sababli, biz ushbu zarrachalarni o‘rganishga qaror qildik. Mis namunasi bir nuqtada uzluksiz lazer impulslari bilan nurlantirildi, ablatsiyalangan zarrachalar esa Skanerlovchi Mobillik Zarracha Separatoriga (SMPS) yo‘naltirildi va ablatsiyalangan zarrachalarning o‘lchami taqsimoti o‘lchandi. Qo‘llanilgan energiya zichligi 24 J/sm² bo‘lib, oqim tezligi 0,32 L/min ni tashkil etdi. Zarrachalarning katta qismi taxminan 100 nm o‘lchamda edi. Biroq o‘lchov taqsimoti egri chizig‘ining boshlang‘ich qismidagi ozgina o‘sish shuni ko‘rsatadiki, ablatsiyalangan bulutda asbobning o‘lchash chegarasi (15 nm) tufayli aniqlanmagan sezilarli miqdordagi kichikroq zarrachalar. Klasterlar bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Muhokama. Yuqoridagi bir nuqtali lazer ablatsiya tajribalari shuni ko‘rsatdiki, lazer bilan ablatsiyalangan sirtda uchta konsentrik hudud ajratib ko‘rsatilishi mumkin: yorqin va silliq ablatsiya krateri, mikrostrukturalangan o‘tish hududi va nozik nanostrukturalarga ega keng va qora atrofdagi hudud. Shunday qilib, biz mis sirtining qorayishi bevosita lazer bilan o‘yish natijasi emas, balki olib tashlangan materialning qaytib tushishi natijasi ekanligini aniqladik. Bu hududlarning shakllanishini lazer ablatsiya jarayoni orqali tushuntirish mumkin. Ablatsiya davomida lazer ta’siri nishon sirtida mahalliy va tez harorat ko‘tarilishiga hamda bug‘lanuvchi atomlar va issiq nanozarrachalardan iborat ablatsiya bulutining portlashiga olib keladi. Nurlantirilgan hajmning bir qismi keyin eriydi va eritilgan tomchilarning ba’zilari fotomexanik effektlar tufayli sachrab chiqadi. Sovigan va qotgan tomchilarni ablatsiya krateri chetida va uning atrofida topish mumkin, ular mikrostrukturalangan hudud hosil qiladi. Ablatsiya plazmasi sovigan sari, atom klasterlari va nanozarrachalari agregatsiya orqali hosil bo‘ladi. Bu nanoklasterlar yoki nanozarrachalar oxir-oqibat sirtga tushadi va unga yopishib qoladi, mikrostrukturalarga nanostrukturali qoplama qo‘shadi. Nanozarrachalar eritilgan tomchilarga qaraganda ancha uzoqroq hududlarni ham qoplashi mumkin.

Nishon sirtini lazer nuri bilan skanerlashimizda ketma-ket lazer nuqtalari qisman ustma-ust tushishi mumkin, skanerlash yo‘nalishida esa keyingi zarba avvalgi hosil bo‘lgan strukturani yo‘q qiladi. Biroq boshqa yo‘nalishda (skanerlash orqasida) hosil bo‘lgan mikro va nanostruktura doimo saqlanib qoladi va nanostruktura qoplamasi kuchayib boradi. Ana shu tarzda sirt tobora qorayadi va qaytaruvchanligi kamayadi.

Hodisani modellashtirish uchun biz orqaga tushgan material tomonidan hosil qilingan qora qatlam qalinligini aniqlashga kirishdik. Misda lazer nurining kirish chuqurligini bilgan holda, Ber-Lambert qonuni va $E = c * m * dT$ tenglamasidan foydalanib hamda nishonning issiqlik o‘tkazuvchanligini hisobga olmagan holda, biz 24 J/sm² fluensda nurlantirilgan materialning harorati 34 nm chuqurlikkacha qaynash nuqtasidan (Tb, Cu =2835 K), 34–40 nm chuqurlikkacha esa erish nuqtasidan (Tm, Cu =1358 K) oshib ketishini hisobladik. Bu shuni anglatadiki, bir zarbada olib tashlangan materialning 85% bug‘lanadi, 25% esa eritilgan material sifatida sachraydi. Umuman olganda, bitta nurlantirish materialni 40 nm chuqurlikkacha olib tashlaydi. Hisoblangan 40 nm ablatsiya chuqurligi kraterlarning profilometriya o‘lchovlaridan chiqarilishi mumkin bo‘lgan natijadan 20–30 nm kamroq bo‘lib, bu 60–70 nm/impuls ablatsiya tezligini ko‘rsatgan edi. Bu farqni hisob-kitoblarda issiqlik o‘tkazuvchanligi hisobga olinmagani bilan tushuntirish mumkin. Bug‘dan metall ionlari, atomlari va nanozarrachalarining kichik klasterlari hosil bo‘ladi, ular sirtga qaytib tushadi va kuzatilgan nanostrukturalarni hosil qiladi. Erigan holda chiqarilgan material (tomchilar, sachramalar) kraterning atrofida joylashadi va qotadi. Ko‘p zarrachali modeli koalessensiya kinetikasini o‘rganildi, bu esa zarrachalarni qaytarib olish uchun ham qiziqarli hodisadir [12].

Olib tashlangan material hajmi profilometriya bilan o‘lchangan ablatsiya krateri o‘lchamlaridan aniqlandi. Qora hudud maydonini bilgan holda, biz orqaga tushgan zarrachalar tomonidan hosil qilingan qatlam qalinligi har bir lazer impulsi uchun taxminan 2,9 nm ekanligini aniqladik. Bu, albatta, yuqori baho hisoblanadi, chunki biz bug‘langan materialning barchasi nishon sirtiga qaytib tushadi va uning ustida bir tekis taqsimlanadi deb faraz qilamiz. Turli skanerlash qadamlarida berilgan sirt elementini ablatsiyaga uchratadigan lazer zarbalari sonini aniqlash uchun biz namunaning lazer bilan skanerlanishini raqamli modellashtirdik. Keyin biz qo‘llanilgan skanerlash qadamlari (ya’ni qo‘llanilgan impuls zichliklari) uchun cho‘kma qatlam qalinligini hisobladik (1-rasm).



1-rasm. Cho‘kma qatlam qalinligining skanerlash qadamiga bog‘liqligi, F=24 J/sm²

Xona haroratidan 900 °C gacha bo‘lgan havoda misning oksidlanishiga oid tadqiqotlarga e'tibor qaratilgan [11]. Ular 100–500 °C da korroziya mahsulotlari parda-parda bo‘lib, qalinligi 100 °C da 50 dan 500 °C da mikrometrlargacha o‘zgarishini aniqlashgan. 800 °C da to‘r-tola shaklidagi g‘ovak to‘qimalar hosil bo‘lgan. Oksidlanish mahsulotlari Cu_2O va CuO bo‘lgan. 800 °C da mis sirtida ikki qatlam rivojlangan: ichki Cu_2O qatlami va Cu_2O hamda CuO dan iborat tashqi qatlam. Shunga muvofiq va harorat hisob-kitoblarimiz hamda zarracha o‘lchami taqsimoti o‘lchovlarimizga asoslanib, ablatsiya bulutida bug‘langan mis atomlari va atom guruhlari yuqori harorat va atrofdagi havoning kislorod tarkibi tufayli yuqori darajada oksidlangan deb taxmin qilish mumkin. Birlik hajmdagi mis va kislorod atomlarining nisbati Cu_2O ustidan CuO ning ustunligiga olib keladi. Bu bizning EDX va XPS o‘lchovlarimiz bilan ham tasdiqlandi.

Shularga asoslanib, biz orqaga tushgan zarracha qatlamining shakllanishi va mis uchun kuzatilgan qaytaruvchanlik kamayishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflovchi ikkita model ishlab chiqdik. Birinchi modelda biz qorayishga javobgar sirt qatlamining nanostrukturalangan tabiatini emas, faqat uning qalinligini hisobga oldik. Qatlam shakllanishi uchun quyidagi farazlarni qabul qildik: Agar tushayotgan lazer impulsi allaqachon bir yoki bir necha qatlam qayta tushgan zarrachalar bilan qoplangan hududga tushsa, bu qatlam olib tashlanadi va atrofdagi halqasimon hududga qayta cho‘kadi. Bu shuni anglatadiki, skanerlash davomida ketma-ketlikdagi keyingi zarbadan kelayotgan zarrachalar avvalgi zarba joyidagi qoplanmagan hududga to‘planadi. Har bir lazer impulsidan so‘ng, ablatsiyalangan zarrachalar atrofdagi halqaga bir tekis cho‘kadi. Olib tashlangan material miqdorini hisoblashda sirt tarkibi mis (ya’ni asl holat) yoki mis (II)-oksidi (ya’ni allaqachon qoplangan) ekanligi farqlanmaydi, chunki qo‘llanilgan lazer to‘lqin uzunliklarida kirish chuqurligi ikkalasida ham taxminan bir xil. Olib tashlangan materialning 100% halqasimon hududga bir tekis qayta cho‘kadi va bir jinsli, zich qatlam hosil qiladi. Cho‘kma qatlam butun qalinligi bo‘yicha sof CuO dan iborat bo‘lib, mis substratni qoplaydi.

Qaytaruvchanlik hisob-kitoblari CuO qatlami yorug‘lik tutqichi (light trap) sifatida ishlaydi deb faraz qildi. Buni tasdiqlash uchun o‘lchangan qaytaruvchanlik egri chiziqlari model hisob-kitoblari bilan taqqoslandi. Hisob-kitoblar uchun biz qaytarish jarayonini quyidagi farazlar bilan to‘rtta bosqichga bo‘ldik: Perpendikulyar tushayotgan yorug‘likning CuO qatlamidan qaytishi nolga teng. CuO qatlami orqali o‘tgan yorug‘lik intensivligi Ber-Lambert qonuni yordamida hisoblanishi mumkin:

$$T_{layer} = e^{-\alpha * l}$$


CuO qatlamining optik koeffitsiyentlari CuO qatlami/ Cu substrat interfeysida Frenel qaytishi sodir bo‘ladi:

$$R_{Cu-CuO} = \left|\frac{n_1 - n_2}{n_1 + n_2}\right|^2$$

Keyin qaytgan yorug‘lik yana CuO qatlamidan o‘tadi. Shunday qilib, nishondan olingan umumiy qaytish quyidagicha bo‘ladi:


$$R_{umumiy} = e^{-\alpha * l} * \left|\frac{n_1 - n_2}{n_1 + n_2}\right|^2$$

Biz CuO – Cu tizimining qaytaruvchanligini turli skanerlash qadamlari (demak, turli CuO qatlam qalinliklari) uchun to‘lqin uzunligi funksiyasi sifatida hisobladik (2-rasm).



2-rasm. CuO– Cu tizimining hisoblangan qaytaruvchanlik spektri, λ(lazer)=1064 nm

